

O'ZBEKISTON ALOQA VA AXBOROTLASHTIRISH AGENTLIGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

Himoyaga ruhsat
Kafedra mudiri

2010 y. «____» _____

KUTUBXONA BIBLIOGRAFIK KATROCHKALARINI ANIQLASH

mavzuida

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Bitiruvchi	_____	Sadirov Feruz
	imzo	f.i.o.
Rahbar	_____	Alimova A.
	imzo	f.i.o.
Taqrizchi	_____	Mardiev N.
	imzo	f.i.o.
MM va TX	_____	Qodirov F.M.
maslahatchi	imzo	f.i.o.

Toshkent-2010

O‘zbekiston Aloqa va Axborotlashtirish Agentligi

Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti

5320200-«Axborotlashtirish va kutubxonashunoslik» yo‘nalishi bitiruvchisi

290-06 Aku guruh talabasi Sadirov Feruz Xasanovichning

“Kutubxona bibliografik kartochkalarini aniqlash” mavzuidagi bakalavr bitiruv malakaviy
ishiga ilmiy rahbarning

XULOSASI

Bugungi kunga kelib elektron kutubxona fondini shakllantirish kutubxona kataloglarida saqlanayotgan xujjatlarning bibliografik kartochkalarni elektron shaklga o‘tkazish jarayonini avtomatlashtirish kutubxona ishida echilishi muhim bo‘lgan muammolardan biri bo‘lmoqda. Bu kabi muammolarni echishda zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan, dasturiy vositalardan foydalanish keng imkoniyatlarni ochib beradi.

Bitiruvchi Sadirov F. ning bitiruv malakaviy ishi kirish, 4 ta bob, xulosalar va foydalanilgan adabiyotlardan iborat bo‘lib birinchi bobda kutubxona bibliografik kartochkalarini aniqlaydigan dasturni yaratish muommasi o‘rganilgan va tahlil qilingan.

Ikkinchi bobda bibliografik kartochkalarni aniqlashni standartlar asosida algoritmlash tilida keltirilgan. Hamda yuqorida ko‘tarilgan muammoni echish algoritmi ko‘rib chiqilgan.

3-bobda bibliografik kartochkalarini aniqlashni dastur ko‘rinishida echish ko‘rsatilgan va yaratilgan tizimdan foydalanish qo‘llanmasi keltirilgan.

To‘rtinchi bobda texnika xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish masalalari ko‘rilgan.

An‘anaviy kutubxonalar fondidagi bibliografik kartochkalarni bibliografik elementlar orqali aniqlash, dasturini ishlab chiqish, kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirishga mo‘ljallangan, elektron ma‘lumotlar bazasini yaratishda ushbu bitiruv malakaviy ish barcha kutubxonalar uchun qulaylik tug‘diradi.

Sadirov Feruz qolga olgan ushbu ishga kiritilgan yangilik bibliografik kartochkalarni bibliografik elementlar orqali aniqlash, avtomatlashtirilgan tizimdagi dasturlarga to‘g‘ri kelishi katta muvaffaqiyat.

Sadirov Feruz bitiruv malakaviy ishiga ilmiy tomondan yondoshgan. Uning bitiruv malakaviy ishi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.

BMI ishi BMI uchun qo‘yilgan barcha talablarga javob beradi va 5320200-«Axborotlashtirish va kutubxonashunoslik» yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olishga loyiq deb hisoblayman va himoya qilishga tavsiya etaman. Mazkur ishni ijobiy baxolayman.

**Ilmiy rahbar “Axborotlashtirish va
kutubxonashunoslik” yo‘nalishi
katta o‘qituvchisi**

Alimova A.M

**O'zbekiston Aloqa va Axborotlashtirish Agentligi
Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti**

5320200-«Axborotlashtirish va kutubxonashunoslik» yo'nalishi bitiruvchisi **Sadirov Feruz Xasanovich**ning “Kutubxona bibliografik kartochkalarini aniqlash” mavzuidagi bakalavr bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Talaba Sadirov Feruzning ushbu malakaviy bitiruv ishi 4 ta bobdan iborat bo'lib, 1-bobda kutubxona bibliografik kartochkalarini aniqlash tizimlari tahlili, dasturiy taminotni yaratish uchun ishlatilgan dasturlash vositalari, kutubxona bibliografik kartochkalarni yozishning mezonlari va standartlari batafsil yoritilgan.

2-bobda kutubxona bibliografik kartochkalarini aniqlashni masalalar ko'rinishida yechish algoritmlari, bibliografik malumotlarni aniqlash algoritmlari ishlab chiqilgan.

3-bobda kutubxona bibliografik kartochkalarini aniqlashning dasturiy kompleks ko'rinishida yechish amalga oshirilgan va to'la bajarilgan bo'lib bular: dasturiy kompleksning funksional strukturasi, dasturiy kompleksning masalalar sxemasi, dasturiy kompleksning blok-sxemasi, dasturiy kompleksning tashkiliy strukturasi, dasturiy kompleksdan foydalanish qo'llanmasi ishlab chiqilgan. Ish ilmiy jihatdan yangilik bo'lib birinchi darajali bibliografik tasvirlarga ega kutubxona bibliografik kartochkalarini aniqlash amalga oshirilgan. Uning amaliy ahamiyati shundaki, kataloglashtiruvchilarning taxminan 50%ga mehnatini yengillashtiradi va vaqtini tejaydi. Bundan tashqari bu dasturiy kompleksni barcha turdagi kutubxonalarda qo'llanilishi mumkin.

An'anaviy kutubxonalar fondidagi bibliografik kartochkalarni bibliografik elementlar orqali aniqlaydigan dastur kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirishga mo'ljallanganligi uchun elektron bibliografik kartochkalar ma'lumotlar bazasini shakllantirishda ushbu bitiruv malakaviy ish barcha kutubxonalar uchun qulaylik tug'diradi deb hisoblayman. Talaba tomonidan ko'rilgan muammo yangilik bo'lib, hali hech kim qo'l urmagan ishdir, shuning uchun bu ish yana davom ettiriliadigan darajada keng qamrovli hisoblanadi. Sadirov F. bu ishni yana ham chuqur o'rganib, nihoyasiga yetkazadi degan umiddaman.

4-bobda esa texnika xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish masalalari ko'rilgan.

Talaba Sadirov F.ning ishini bitiruv malakaviy ishga qo'yilgan talablarga mos deb bilaman va ijobiy baholashni DAK a'zolaridan so'rayman.

**A. Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy
kutubxonasi Avtomatlashtirish va axborot
texnologiyalari bo'limi mudiri, t.f.n.**

Mardiyev N.

Ushbu malakaviy bitiruv ishida kutubxona bibliografik kartochkalarini aniqlash tizimlari tahlili, dasturiy ta'minotni yaratish uchun ishlatilgan dasturlash vositalari, kutubxona bibliografik kartochkalarni yozishning mezonlari va standartlari, kutubxona bibliibliografik kartochkalarini aniqlashni masalalar ko'rinishida yechish algoritmlari, bibliografik malumotlarni aniqlash algoritmlari, kutubxona bibliografik kartochkalarini aniqlashning dasturiy kompleks ko'rinishida yechish amalga oshirilgan.

Настоящая выпускная квалификационная работа посвящена на отражению систем распознавание библиотечно-библиографических карточек, программные средства необходимые для создания программного обеспечения, критерии и стандарты библиотечно-библиографического описания книг, дается разработки решения распознавания библиографических карточек, алгоритмы распознавания библиографических сведений, выполнена распознавание карточек в виде программных комплексов.

The present final qualifying job is devoted on reflexion of recognition systems of bibliographic indexes, software necessary for making an application, criteria and standards of the bibliographic indexes description of books, there is maken decisions about recognition of bibliographic cards, algorithms of recognition of bibliographic data, done recognition of cards in the form of program complexes.

O'ZBEKISTON ALOQA VA AXBOROTLASHTIRISH AGENTLIGI

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

Axborot texnologiyalari fakulteti Axborot texnologiyalari kafedrası
yo'nalish 5320200 Axborotlashtirish va kutubxonashunoslik

TASDIQLAYMAN

Kafedra mudiri _____
2010 y «_____» _____

Talaba _____ Sadirov _____ Feruz _____ Hasanovich _____ ning
(familiyasi, ismi, otasining ismi)

”Kutubxona bibliografik katrochkalarini aniqlash” mavzuidagi malakaviy bitiruv ishiga

TOPSHIRIQ

1. Mavzu universitetning 2010 yil «12» 01 dagi 26 – sonli buyruq bilan tasdiqlangan
2. Ishni himoyaga topshirish muddati 2010 yil 25 may
3. Ishga oid dastlabki ma'lumotlar mamlakatimiz kutubxonalarida qo'llanilayotgan standartlar tizimini o'rganish, Internet orqali Rossiyaning sohaga oid dasturlarini o'rganish, an'anaviy va elektron shakldagi bibliografik ma'lumotlar bazasini o'rganib chiqish.
4. Hisoblash-tushuntirish yozmalar mazmuni (ishlab chiqiladigan masalalar ro'yxati): 1-darajali bibliografik tavsif aks etgan katrochkalarni standartlar asosida elektron bazasini aniqlash va yaratish; bibliografik katrochkalardagi bibliografik yozuvlarni aniqlashning algoritmini ishlab chiqish.
5. Grafik Materiallar ro'yxati: 1. Matnlarda blok sxemalarning berilishi. 2. Dastur kodi, 3. Elektron baza.
6. Topshiriq berilgan sana 15/01/2010.yil

Rahbar _____
imzo

Topshiriq oldim _____
imzo

7. Ishning ayrim bo'limlari bo'yicha maslahatchilar:

Bo'lim nomi	Maslahatchi	Imzo, sana	
		Topshiriq berildi	Topshiriq olindi
1-bo'lim	Alimova A.M.	15.01.2010 y	15.01.2010 y
2-bo'lim	Alimova A.M.	27.02.2010 y	27.02.2010 y
3-bo'lim	Xalilov S.J.	31.03.2010 y	31.03.2010 y
4-bo'lim	Qodirov F.M.	30.04.2010 y	30.04.2010 y

8. Ishni bajarish grafigi

T/r	Ish bo'limlari nomi	Bajarish muddati	Rahbar (maslahatchi) imzosi
1	Kutubxona bibliografik kartochkalarini aniqlash tizimlarining tahlili.	27.02.2010 y .	
2	Kutubxona bibliografik kartochkalarini aniqlaydigan algoritmlar.	31.03.2010 y .	
3	Kutubxona bibliografik kartochkalarini aniqlashni dasturiy kompleks ko'rinishida echish.	30.04.2010 y	
4	Texnika xavfsizligi va mexnatni muxofaza qilish	22.05.2010 y	

Bitiruvchi _____

Imzo

2010 yil « 25 » May _____

Rahbar _____

Imzo

2010 yil « 25 » May _____

Mundarija

1.	Qisqartmalar va terminlarning ro'yhati.
2.	Kirish.
3.	1-BOB. KUTUBXONA BIBLIOGRAFIK KARTOCHKALARINI ANIQLASH TIZIMLARINING TAHLILI. 1.1. Kutubxona bibliografik kartochkalarini aniqlaydigan dasturiy taminotni yaratish uchun ishlatiladigan dasturlash vositalarining tahlili. 1.2. Kutubxona bibliografik kartochkalarini aniqlaydigan dasturlarning tahlili. 1.3. Kutubxonada bibliografik kartochkalarni yozishning mezonlari va standartlari. Xulosa.
4.	2-BOB. KUTUBXONA BIBLIOGRAFIK KARTOCHKALARINI ANIQLAYDIGAN ALGORITMLAR. 2.1. Masalani(masalalarni) yechish algoritmlari. 2.2. Bibliografik ma'lumotlarni aniqlash algoritmlari.
5.	3-BOB. KUTUBXONA BIBLIOGRAFIK KARTOCHKALARINI ANIQLASHNI DASTURIY KOMPLEKS KO'RINISHIDA ECHISH. 3.1. Dasturiy kompleksning funksional strukturasi. 3.2. Dasturiy kompleksning masalalar sxemasi. 3.3. Dasturiy kompleksning tuzilishi (blok-sxemasi). 3.4. Dasturiy kompleksning tashkiliy strukturasi. 3.5. Dasturiy kompleksdan foydalanish qo'llanmasi.
	4-BOB. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI 4.1. Shovqin va silkinishdan himoya. 4.2. Baxtsiz xodisalar va kasb kasalliklarini tekshirish va xisobga olish.
7.	Xulosa.
8.	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.
9.	Ilova.

QISQARTMALAR VA TERMINLARNING RO'YHATI.

1. **EK** –Elektron Katalog
2. **ARM** –Axborot Resurs Markazi
3. **AKM** –Axborot Kutubxona Markazi
4. **WWW** –Word Wide Web
5. **HTML** –Hyper Text Markup Language (Gipermatnni Belgilash Tili)
6. **BT** –Bibliografik Tasvir
7. **BM** –Bibliografik ma'lumot
8. **MB** –Ma'lumotlar Bazasi
9. **MBBT** –Ma'lumotlar Bazasini Boshqarish Tizimi
10. **AKAT** –Avtomatlashtirilgan kutubxona-axborot tizimi.
11. **AIJ** –Автоматлаштирилган иш жойи.
12. **BBK** –Библиотечно-библиографическая классификация.
13. **BY** –Библиографик ёзув.
14. **ГРНТИ** –Государственный рубрикатор научно-технической информации.
15. **MARC** –Machine – Readable Catalogue or Cataloguing.
16. **УДК** –Универсальная десятичная классификация..
17. **XML** –Extensible Markup Language.
18. **UNIMARC** –Universal MARC.

KIRISH

Zamonaviy axborot texnologiyalar rivojlanishi natijasida virtual kutubxonalarga bo'lgan talab paydo bo'ldi. Virtual kutubxona tarkibiy qismi xisoblangan elektron kataloglarni shakllantirish zaruriyati tu'g'i'ildi. Bu masala mavjud kutubxonalardagi bibliografik kartochkalarni elektron shaklga o'tkazish bilan bog'liq.

Respublikamiz prezidenti I.A. Karimovning 2006 yil 20 - iyundagi “Respublika aholisini kutubxona axborot bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida”gi qarori ijrosini ta'minlash, kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislar oldiga bir qator hal qilinishi o'ta dolzarb masalalarni qo'ymoqda. Mazkur malakaviy ishda kutubxona bibliografik kartochkalarida saqlanadigan ma'lumotlarning elektron shaklini yaratishning nazariy asoslarini ilmiy jihatdan asoslab berilganligi bilan bir qatorda qarorda ko'zda tutilgan masalalarni echishda katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega tavsiyalar keltirilgan.

Amaliy ahamiyati. “Kutubxona Bibliografik kartochkalarini aniqlash” g'oyasi mazkur bitiruv malakaviy ishda har tomonlama batafsil yoritilgan. Respublikamizda mavjud axborot kutubxona markazlarida kutubxona fondidagi birinchi darajali bibliografik kartochkalarning elektron ma'lumotlar bazasini yaratishda va undan foydalanishda ushbu bitiruv malakaviy ishda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

Hozirgi kunda elektron, korporativ va virtual kutubxonalarning shakllanishi bilan kutubxonalarga alohida munosabat hamda ulardan foydalanishga bo'lgan talablar ko'lami ham kengayib boradi. Yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish sababli an'anaviy kutubxona tizimlaridagi ayrim komponentlar o'zining axborotga bo'lgan ahamiyatini yo'qotadi.

Ma'lumki, har qanday jamiyatning rivojlanishi uning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy rivojlanishi bilan bog'liqdir. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniyatning rivojlanishi esa fan va ta'limning rivojlanishiga bog'liqdir. Fan va ta'limning rivojlanishi o'z navbatida, axborot resurslari hamda axborot qidirish, saqlash, uzatish, qabul qilish, qayta ishlash vositalarining qay darajada rivojlanganligiga bog'liqdir. Demak, yuqoridagilardan shunday xulosa chiqarish mumkin: fan va ta'lim tizimini rivojlantirish uchun dastlab bu ikki sohaning asosiy axborot ta'minotini tashkil etuvchi kutubxonalar, axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlari faoliyatini takomillashtirish talab qilinadi.

Ishning dolzarbligi. Har qanday kutubxona oldidagi asosiy vazifalardan biri bu kutubxona fondini katalogda aniq va to'liq aks ettirishdir. Ma'lumki, katalogda aks etmagan har qanday kitob kutubxonalar uchun noma'lumligicha qoladi. Shu sababli ham kutubxona jarayonlarini

avtomatlashtirining birinchi bosqichida elektron katalog yaratish ishiga e'tibor qaratiladi. Keyingi paytlarda matbuotda e'lon qilinayotgan ba'zi bir maqolalarda “elektron kutubxona”, “elektron katalog” yaratilganligi va yangi tipdagi ARM lar barpo qilinganligi to'g'risidagi fikrlarni o'qish mumkin. Bu maqolalardagi asosiy fikr “elektron kutubxona”ning “elektron katalogi” bo'lishi kerakligi va elektron katalog yaratish ishi o'ta murakkab jarayon ekanligi kelib chiqadi

Dastlabki MARC format AQSh Kongressi kutubxonasida kitoblar katalog kartochkasini avtomatlashgan tarzda tayyorlash maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, so'ngra bu formatning davriy nashrlar (gazeta va jurnallar) elektron katalogini yaratishga mo'ljallangan varianti ham ishlab chiqildi. Bugungi kunda MARC formatlar bilan ixtiyoriy ko'rinishdagi hujjatlar tavsifini yaratish mumkin. Formatlarning rivojlanishi milliy va xalqaro bibliografik ma'lumotlarni almashtirishga mo'ljallangan kommunikativ formatlarning yaratilishiga olib keldi. MARC formatlarning kutubxona jarayonlariga tatbiq qilinishi kutubxonalardagi eng murakkab jarayonlardan biri bo'lgan elektron katalog bazasini shakllantirish ishini avtomatlashtirish va yig'ma elektron katalog bazasini shakllantirishga imkoniyat yaratdi. Shunday qilib, MARC formatni, bibliografik axborotni mashina o'qiy oladigan axborot tashuvchida yozish standarti sifatida tushinish mumkin. Demak, avtomatlashtirilgan kutubxonada elektron katalog qanchalik muhim bo'lsa elektron katalog bazasini shakllantirishda MARC formatlarning roli ham shunchalik muhim, zero MARC formatlar talabini qanoatlantirmaydigan har qanday elektron katalogni ARM, AKM va kutubxonalarga tadbiq qilish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Shu bilan birga ommaviy kutubxonalarda MARC format yaratilgunga qadar va undan keyin ham bibliografik tavsif kartochkalarga davlat standarti asosida yo'ziladi.

Ishning maqsadi. Bizga ma'lumki EK bazasini shakllantirishda ikki usuldan foydalaniladi: birinchisi kutubxonani avtomatlashtirishga mo'ljallangan tizimning bazasiga bibliografik ma'lumotlar qo'lda kiritiladi, ikkinchi usul korporativ kataloglashtirish usuli bo'lib bunda EK bazasiga kiritilayotgan bibliografik ma'lumotlar avval tayyorlangan yozuvlarni o'z bazasiga ko'chirib olish va tegishli to'ldirishlar kiritish orqali yaratiladi. Birinchi usuldan foydalanilganda avvaldan yozilgan kartochkalardagi barcha ma'lumotlarni elektron kartochkaga ko'chirish mezonlari asosida o'qib olishi va qo'lda kiritishi zarur bo'ladi. Bu jarayonni amalga oshirish uchun malakali bibliograflar va katalogizatorlarni talab qilinadi. **Maqsadga erishish uchun vazifalar.** Aniqlash jarayonini avtomatlashtirish uchun yana talablardan biri standartlardir. 2007-yili A. Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasining tashabbusini "Aloqa va axborotlashtirish agentligi" qo'llab-quvvatladi va Respublika axborot-kutubxona markazining sa'y harakati bilan kutubxonachilik sohasiga oid standartlar tizimining birinchi varianti ishlab chiqildi. Demak, nazariy jihatdan kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini beruvchi dasturiy

vositalar yaratishga imkoniyat yaratildi. Endilikda EK da aks etmagan xujjatlarni aks ettirish kerak bo'lib qoladi.

Ishning ilmiy yangiligi. Kutubxona fondida saqlanayotgan bibliografik kartochkaga ega xujjatlarni EK da aks ettirishni taminlaydigan tizimni avtomatlashtirishda mazkur yaratilgan tizim orqali 1-darajali bibliografik tavsiflarni kiritishni amalga oshirish mumkin.

1-BOB. KUTUBXONA BIBLIOGRAFIK KARTOCHKALARINI ANIQLASH TIZIMLARINING TAHLILI.

1.1. Kutubxona bibliografik kartochkalarini aniqlaydigan dasturiy taminotni yaratish uchun ishlatiladigan dasturlash vositalarining tahlili.

Kutubxona bibliografik kartochkalarini aniqlaydigan dasturiy taminotni yaratish Microsoft firmasi ishlab chiqqan ActiveX texnologiyasi va klient tomonidan bajariladigan senariyli til sifatida foydalaniladigan JavaScript dasturlash tilidan hamda shu firma ishlab chiqqan ofis dasturlari paketiga kiruvchi Microsoft Access 2003 dasturidan ma'lumotlarni bazada saqlash uchun. foydalanildi Klient interfeysini yaratishda HTML tilidan foydalanildi.

Dasturlash vositalarining afzalligi. Mijoz-server arxitekturasiga asoslangan dastrurlashning afzalligi shindaki bir vaqtni o'zida bir manbadan bir-necha mijozlar foydalanishi mumkin. Dasturiy kompleksni yaratishda foydalanilgan JavaScript senerili dastrulash tili mijoz kompyuterda ishlashini alohida etiborga olib shuni aytish mumkinki bu dastruriy kompleksni boshqa tizimlarda PLUGIN sifatida ham foydalansa bo'ladi. Qolaversa mijoz kompyuterda ishlaydigan vbscript senarili dasturlash tili mavjud bo'lib bunda tuzilgan dasturlar faqat Internet Explorer Brovzerida ishlaydi. Va bu o'z navbatida Windows operatsion tizimini talab qiladi. Bu shartlar bizning talabimizga to'liq mos kelsada Plugin vazifasidan foydalanganda xarxil brovzerlar, operatsion tizimlarda foydalanish mumkin bo'lmay qoladi.

Dasturlash vositalarining kamchilligi. Mijoz kompyuter fayllar tizimi bilan ishlashi uchun Microsoft firmasining ActiveX texnologoyasidan foydalanildi lekin bu texnologiya faqat Windows operatsion tizimi da mavjud bo'lib va Internet Explorer brovzeri qo'llab quvvatlashi mumkin.

Html nima?

HTML (Hyper Text Markup Language-gipermatnni belgilash tili) WWW(World Wide Web) sistemasini uchun hujjat tayyorlashda ishlatiladi. HTML tili bu biz bilgan C, C++, Java, Basic va boshqa dasturlash tillari kabi to'g'ri manodagi dasturlash tili hisoblanmaydi. HTML yordamida biz MS DOS, Windows va boshqa operatsion sistemalarida ishlaydigan to'laqonli dastur yoza olmaymiz. HTML bu internet tarmog'idagi Web- serverida joylashtirilgan hujjatlarni ko'rish imkoniyatini beradigan sahifalar yaratishga mo'ljallangan gipermatnni belgilash tili hisoblanadi.

Hujjatni barcha kompyuterlar tushunadigan holda ko'rsatish uchun, kompyuterlarning tushunadigan yagona tilini bilishga to'g'ri keladi. Shu sababli World Wide Web da qo'llaniladigan HTML tili barpo etildi. Ushbu tilni birinchi bo'lib Tim Berners-Li ishlab chiqdi.

WWW sistemasidan qandaydir hujjat yoki xabar olsangiz, ekranda yaxshi formatlangan, o'qish uchun qulay matn paydo bo'lganligini ko'rasiz. Bu shuni anglatadi-ki, WWW hujjatlarida ma'lumotlarni ekranda boshqarish imkoniyati ham mavjud. Siz foydalanuvchining qaysi

kompyuterda ishlashini bilmaysiz va WWW hujjatlar aniq bir kompyuter platformalariga mo'ljallangan yoki qaysidir format bilan saqlanishini oldindan ayta olamaysiz. Ammo kompyuterda ishlayotgan foydalanuvchi qaysi terminalda ishlashidan qat'iy nazar yaxshi formatlangan hujjatni olishi kerak bo'ladi. Bu muammoni HTML andaza tili hal qiladi. U hujjatning tuzilishini ifodolovchi uncha murakkab bo'lmagan buyruqlar majmuidan iborat. HTML buyruqlari orqali matnlarning shaklini o'zgartirish, ya'ni matnning ma'lum bir qismini ajratib olib boshqa faylga yozish va boshqa joydan turli xil rangli tasvirlarni qo'yish mumkin. U boshqa hujjatlar bilan bog'laydigan gipermatnli aloqalarga ega. HTML dan foydalanish tekin va ochiq kodli til bo'lib web sahifani yaratishda qaysi teglardan foydalanganligini ixtiyoriy foydalanuvchi brovzer dasturlari yordamida yoki matn bilan ishlaydigan dasturlar yordamida ko'rish mumkin.

HTML sahifasini yaratish.

Gipermatndagi xohlagan sahifani ochib, uning HTML kodini ko'rishingiz mumkin. Buning uchun ixtiyoriy Web sahifasini oching va **“Вид”** menyusining **“Просмотр HTML-кода”** punktini tanlang. Bunda siz ko'rib turgan sahifangizning HTML kodini ko'rasiz. HTML kodi bloknot orqali ochiladi.


Endi tajriba o'tkazamiz.

1. Komp'yuterda matnli hujjat barpo qilamiz. Buning uchun sichqonchaning o'ng tugmasini bosing va “so'zdat” punktidan “Tekstovo'y dokument” “Matnli xujjat” komandasini tanlang. Bu bilan siz “Tekstovo'y dokument.txt” hujjatini barpo qildingiz.

2. Ushbu faylni ochamiz va unga quyidagi matnlarni kiritamiz.

Misol 1:

```
<html>
<head>
<title>Assalomu Alaykum!</title>
</head>
<body>
<p>Mening birinchi web saxifam!
</p>
</body>
</html>
```



(1-rasm)

3.Ushbu yozganlarimizni xotiraga saqlaymiz.

4.Biz xotiraga saqlagan fayl nomi “Tekstovo'y dokument.txt”. Endi ushbu faylning nomini o'zgartiramiz, yani “Tekstovo'y dokument.html”. Etibor bersangiz biz faqat kengaytma nomini o'zgartirdik, yani “txt” ni “html” ga almashtirdik xolos.

5.Endi esa nomi o'zgartirilgan “Tekstovo'y dokument.html” hujjatni ochamiz. Ekranda “Mening birinchi web saxifam!” so'zini ko'rasiz. qolgan matnlar, yani <html>, <head>, <title> va shunga o'xshaganlar ekranda ko'rinmaydi.

6.“Вид”menyusining “Просмотр HTML-кода” punktini tanlaymiz. Bunda siz avvalgi yozgan matnlaringizni ko'rishingiz mumkin. Matnlar odatdagidek bloknot orqali ochiladi.

HTML tilinig teglari.

HTML tilining asosi- teglar sanaladi. Bu teglar orqali sahifadagi elementlarning tashqi ko'rinishini o'zgartirish mumkin. HTML sahifasi quyidagi teglar va mos atributlardan tashkil topadi. Barcha teglar “< >” qavslari bilan yoziladi.

<html>

<head>

<title>Assalomu Alaykum!</title>

</head>

<body>

<p>Mening birinchi web saxifam!

</p>

</body>

</html>

bu erda “< >” qavslari ichidagi matnlar teglar deyiladi.

Yuqoridagi teglar quyidagi vazifalarga ega.

<html> ushbu teg hujjatni ochadi yoki barpo qiladi.

`<head>` bu teg hujjatning boshi hisoblanadi. (inglizcha HEAD so'zidan olingan). Bu qismga asosan yordamchi axborotlar kiritiladi

`<title></title>` ushbu teglar hujjatni titul qismi hisoblanadi (internet explorer oynasining yuqoridagi sistemali menyu satriga qarang!!).

`</head>` yopiluvchi teg yoki hujjatning bosh qismini yopadi.

`<body>` hujjatning tana qismi. (inglizcha BODY so'zidan olingan.) Bu erda o'qiladigan yoki brovzerda ko'rinadigan matnning asosiy qismi joylashadi.

`<p>` bu teg paragraf tegi hisoblanadi. Yani paragraflarni belgilaydi.

`</p>` paragrafning yopiluvchi tegi.

`</body>` hujjatning tana qismining yopiluvchi tegi.

`</html>` ushbu teg bilan hujjat butunlay yopiladi.


Ilova: `</html>` tegidan keyingi kiritilgan matnlar etiborga olinmaydi va bravzerda ko'rinmaydi. Ushbu teg hujjatning oxiriga qo'yiladi. Shuni xam aytib o'tish kerakki teglar juft va toq teglarga bo'linadi. HTML sahifa yaratayotganda teglarning joylashishi muhim o'rin kasb etib ularning chegaralari o'zaro kesishib ketmasligi kerak aks xolda biz xoxlagan natija chiqmay qoladi. HTML tili rivojlanib takomillashib va yangi versiyalari hatto variatsiyalar yaratilgan bo'lsada bu sahifaning umumiy strukturasi doimo o'zgarmas bo'lib kelgan xuddi dasturlash tillari kabi "begin" bilan boshlanib "end" bilan tugagan kabi.

Hujjatning sxematik ko'rinishi quyida qisqacha keltirib o'tilgan bo'lib biz earatayotgan dasturiy kompleks javascriptda tuzilganligi uchun bu tildagi dastur kodlari `<HEAD>` juft teglari orasiga yoziladi. Odatda HTML sahifada sihatilgan senarili til ko'rsatilishi shart. Senaril til yoziladigan soha `<script>` juft teglari orasida joy olgan. Umumiy ishlatilishi quyidagicha:

`<script language="JavaScript">dastur kodi...</script>` JavaScript dastur kodi.

`<script language="vbScript">dastur kodi...</script>` visual basic dastur kodi.

HTML sahifasining umumiy sohalarining joylashuvi quyidagicha.



(2-rasm).

JavaScript Nima?

Birinchi bor JavaScript 1995 chi yil o'z faoliyatini boshladi va 1998 yilga kelib keng foydalanila boshlandi. Uning yaratilishidan asosiy maqsad Client tomonidan kiritilgan ma'lumotlarni tekshirish, ya'ni server vazifasini osonlashtirish edi.

Lekin oradan ko'p vaqt o'tmasdan javascript web development'ning asosiy turlaridan biri bo'lib qoldi. Microsoft kompanyasi ham o'zining scripting language ya'ni Vbscriptni chiqardi ammo lekin uni keng qo'llab bo'lmas edi, sababi Internet Explorer'dan boshqa hech qaysi Web Brovzer uni ishlata olmasdi. Keyin esa Microsoft ham Internet Explorer ichiga JavaScript'ni qo'shdi. Hozirgi kunga kelib hamma Web Brovzerlar JavaScriptni ishlata oladi. JavaScript bu "Client side programming" saytida saxifani ochgan kliyent uchun xizmat qiladi. PHP, Perl, CGI, JSP lar kabi serverda ishlamaydi. JavaScriptda siz DHTML yani Dynamic HTML sahifalari yoza olasiz. JavaScript ning asosi uch qismi quyida keltirilgan:

1. ECMAScript
2. The Document Object Model (DOM)
3. The Brovzer Object Model (BOM)

ECMAScript: Bu JavaScriptning asosi, yani yadrosi bo'lib bu hech qanday brovzer'ga bog'liq bo'lmagan, hech qanday server ga bog'liq bo'lmagan qismidir. Buning ichida buyruqlar, script yozish usullari, o'zgaruvchan/o'zgarmaslar, opera-torlar, kalit so'zlardir (syntax, types, keywords, operators, statements)

DOM(The Document Object Model): API (Application programming interface) for HTML and XML, yani programmalar yaratish ko'rinishidir. Agar boshqa tillarda misol uchun Java yoki Delphi, Visual Basic da programmalar yozgan bo'lsangiz unda ular OOP Object Oriented Programming edi, ularda asos va uning ichida elementlari bor edi, bu yerda ham huddi shunday tarifdir.

BOM (Brovzer Object Model) Bu web brovzer bilan aloqali ishlardir. Yani bularga bar'nistatusng tekstini o'zgartirish, toolbarni o'zgartirish va hkz, faqatgina brovzer bilan aloqali bo'lib web sahifaning

o'ziga aloqali emasdir.

Bular:

1. Yangi brovzer ochish
2. Brovzerni yurgizish, katta kichik qilish, yopish
3. Cookie qo'llanishi
4. Ekran kattaligi
5. Toolbar, Navigator lar

Bular hammasi BOM o'z ichiga oladi.

ECMAScript

Hamma yozuvlar casesensitive(harflarni katta kichikligiga bog'liq): Harflarni katta yoki kichikligi ahamiyati kattadir. Masalan "test" "Test" bilan bir hil emas, ular har hil deb qabul qilinadi.

Avvalam bor alert() funksiyasini ko'rib chiqamiz. Alert ('Test') bu oynamizga "Test" so'zini chiqaradi.

Variable (o'zgaruvchi va o'zgarmaslar): O'zgarmas yoki o'zgaruvchilarni

tarifini berayotganingizda ularni har birini alohida yoki birga tariflashingiz kerak va ularga hohlasangiz boshidayoq qiymat berib qo'yishingiz mumkin. Va var so'zi bilan boshlanishi shartdir. Istalgan kod ichida yozishingiz mumkin.

Nuqta vergul qoyish ixtiyoriy: har bir qator tugashida nuqta vergul (;) qo'yish mumkin yoki qoymasa ham bo'ladi.

Komentariyalar: Aynan C, Delphi, Java kabidir.

// bitta qatorni komentariyaga olish

/* bir nechta

qatorni komentariyaga olish

*/

Katta qavs: Kod bloklari katta qavs orasida yoziladi "{}"

O'zgarmas va O'zgaruvchanlar turlari:Undefined: agarda o'zgarmas

/o'zgaruvchi tanitilmagan bo'lsa yani unga qiymat berilmasa yoki turi ko'rsatilmasa.

Boolean: ha/yo'q (true/false) qiymatini ola oladigan o'zgaruvchi.

Number: bu son bo'lgan o'zgaruvchidir. Bir qancha turda ko'rsatish mumkin yani 8 lik sanoq sistemasida yoki 10 lik sanoq sistemasida yoki 16 sanoq sistemasida.

String: matnlar uchundir, buning ichida istalgan narsa bo'lishi mumkin.

var tekst = "bu erda kitob xaqidagi barcha bibliografik ma'lumotlar mavjud";

string ichida quyidagi mahsus belgilarni ishlatishingiz mumkin.

\n yangi qator

\t Tab

\b Backspace

\r Enter

\f Formfeed

\\ Backslash

\' Single quote(bittali qo'shtirnoq)

\" Double quote(ikitali qo'shtirnoq)

\0nnn sakizlik sanoq sistemasidagi son

\xnn o'n oltilik sanoq sistemasi

typeof operatori: Bu operator bizga o'zgaruvchimizni qaysi tip olganligini ko'rsatib beradi.

length operatori: Bu operator string bo'lgan o'zgaruvchanni uzunligini beradi.

String ga qolgan tiplarni o'zgartirish:toString() operatori: Bu operator qolgan tiplardan yani number, boolean larni string ga o'giradi.

Number ga o'girish:String dan Numberga o'tkazish parseInt() va parseFloat() operatorlari bilan amalga oshiriladi.

Yana shuni aytib o'tish kerakki siz o'zgaruvchini yaratayotganingizda boshidayoq turini o'zgartirib yaratish mumkin.

Buning uchun yaratilayotgan o'zgaruvchi turini Boolean, String, Number deb qavs ichida qiymatini berishingiz mumkin.

Boolean uchun agarda ichida hech narsa bo'masa yoki 0 soni yoki null bo'lsa unda uni qiymati false bo'ladi, qolgan holatlarda true bo'ladi.

Number uchun agarda false yoki true qo'yilsa unda 0, 1 sonini oladi. Qolgan vaqtlarda yozilgan sonni oladi.

Object class. Bu hamma obyektlarning eng boshi, hamma o'zgaruvchilar shunda hususiyatlarini oladi va shundan yaratiladi.

Properties/Hususiyatlari:

constructor – Qaysi obyekt yaratganligini ko'rsatadi.

prototype – shu obyektning prototipi kim ekanligini ko'rsatadi, asosan bu Object dir

Methods:

hasOwnProperty(property): Qandaydir o'zining qo'shimcha hususiyati bor yoki yoqligini aniqlaydi.

isPrototypeOf(object): Qandaydir obektning prototype'ligini bilish uchun ishlatiladi.

propertyIsEnumerable(property): bu hususiyatni for ... in kabi funktsiyalar bilan ishlatish mumkin yoki mumkin emasligini ko'rsatadi.

valueOf(): bu asosan aynan toString kabi ishlaydi. Yani qiymati nima ekanligini qaytaradi.

Number class: Bu object class dan yaratilib qo'shimcha hususiyat va metodlari bilan keladi. Bu yerda ba'zi bir qo'shimcha hususiyat va metodlarini ko'rib chiqamiz.

ToFixed(): bu metod sonni string da qaytaradi

toExponential(): Bu bizga sonimizni 10 ni darajasi ko'rinishidagi formatda ko'rsatish uchun kerak.

toPrecision(): ham toFixed va toExponential ning ishini qiladi, qaysi birini ishlatish bu siz bergan ichki songa bog'liqdir.

Math Object: Bu number lar bilan ishlashda bizga qo'shimcha object bo'lib uning ichida bir qancha funktsiyalar va o'zgarmaslar joylashgandir. Bular:

Math.PI (=3.141592653589793)

Math.SQRT – Ildiz ostida

Math.ceil(number): number sonidan keyingi katta son yoki unga teng bo'lgan butun sonni qaytaradi.

Math.floor(number): number sonidan kichik bo'lgan yoki teng bo'lgan keyingi integer tipidagi sonni qaytaradi.

Math.sqrt(number): Numberni ildizini olamiz

Math.random(): Ihtiyoriy sonni bizga beradi. Va bu sonlar 0 va 1 orasidagi sonidir.

Math.round(number): Bu metod esa number sonini yahlitlaydi, agar nuqtadan keyingi son 5 ga teng yoki katta bo'lsa sonimizga bir qo'shib beradi bo'lmasa soning o'zini qoldiqsiz qismini beradi.

Math.pow(num1, num2): num1 ni num2 darajasini beradi.

Math.min(num1, num2), Math.max(num1, num2): num1 va num2 ning kichigi va kattasini bizga beradi.

If statement: shatrlı o'tish operatori. Yozilishi:

```
if (shart) {
```

```
//Shart rost bo'lganda bajarilishi kerak bo'lgan byuruqlar ketma-ketligi
```

```
}else{//shart rost bo'lmaganda bajariladigan byuruqlar ketma-ketligi }
```

String classining qo'shimcha metod'larini ko'rib chiqamiz.

charAt(n): bu string'imizning ichidagi n joyida qaysi belgi turganligini ko'rsatib beradi.

charCodeAt(n): Bu bizning n o'rinda turgan belgining ASCII ko'dini beradi.

concat(text): Bu ikkita stringni birlashtirish uchun ishlatiladi.

concat() operatorini ishlatish o'rniga siz "+" belgisini ham ishlatishingiz mumkin.

indexOf(harf), lastIndexOf(harf): bular qandaydir harfni yoki harflar to'plamini berilgan string'ning ichidan qidiradi va agarda topsa unda uning joylashgan o'rnini ko'rsatadi, agar topa olmasa unda -1 qaytaradi. indexOf() va lastIndexOf() ning bir biridan farqi shuki indexOf qidirishni boshidan boshlaydi

lastIndexOf esa ohiridan boshlaydi. Yani indexOf() aniqlaydigan pozitsiyadan keyingi belgi pozitsiyani aniqlaydi.

substring(), slice() operatorlari: Ikkalasi ham deyarli bir hil ish qiladi. Ularni ishi shundan iboratki berilgan joydan yoki berilgan joydan berilgan joygacha bo'lgan string'ning qismini kesib olish uchundir.

Nima farqi bor bu ikki operatorni?

Ularni farqi shundaki slice() "-" li sonni orqadan sanash kerak deb tushunadi, substring() esa uni 0 raqami deb qabul qiladi.

substring() har doim kichik raqamni boshlanish nuqtasi deb biladi katta son esa tugash shuning uchun

toLowerCase(), toUpperCase(), toLocaleLowerCase(), toLocaleUpperCase() operatorlari: Bu operatorlarimiz bizga berilgan string ni tamoman kichik yoki katta harfga o'girish uchun ishlatiladi.

Unary Operators (Unarniy operatorlar). Bu operatorlar faqatgina bitta qiymat ola oladi va bu object yoki uni hususiyatlaridir.

delete bu operator faqatgina object ning metod'i yoki properties'ini qabul qila oladi. Va ularni o'chirib tashlaydi. Agarda bu property yoki metod dasturchi tarafidan berilgan bo'lmasa unda uni o'chira olmaydi.

void bu operatorimiz qandaydir funktsiyani yoki metodni chaqirganimizda orqaga qiymat qaytarmasligi uchun ishlatiladi. Yani deylik qandaydir funktsiya bajarilishi kerak lekin u qiymat qaytarmasligi kerak, ammo hamma funktsiyalar qiymat qaytarmasa ham "undefined" qaytaradi. Shuni olib tashlash uchun void ishlatiladi.

increment/decrement (1 ga oshirish yoki kamaytirish) Bu operatorlarimiz qandaydir sonni 1 soniga oshirish uchun yoki kamaytirish uchun kerak bo'ladi.

Buning uchun siz ++ yoki -- (ikkita minus belgisi) ishlatishingiz mumkin.

Module operatori. Module % belgisi orqali hisoblanadi

== operatori Bu operator tekshirish operatoridir, farqi shundaki obektlari bir-biriga o'zgartirmaydi.

solishtirish operatorlari Bu yerda qandaydir tekshiruvga ko'ra qiymat o'zgaruvchiga beriladi.

var iNum=5, iNum2=6

var iMax=(iNum>iNum2) ? iNum: iNum2

Yani bu yerda nima qildik? Bu yerda biz iNum va iNum2 ni bir biri bilan solishtirdik va agarda iNum katta iNum2 bo'lsa unda iNum ni iMax ga berishni bo'lmasa iNum2 ni iMax ga berishni aytdik.

Qo'shimcha tenglik operatorlari

+= operatori ma'lum o'zgaruvchini qiymatini = dan keyin turgan qiymatga oshirishni taminlaydi.

Huddi shunday *=, - /=, %=, kabi operatorlar ham bordir. Bular ham aynan yuqoridagidek.

Yuqorida IF ni ko'rib chiqqan edik mana bu yerda bu ushni chuqurroq ko'rib chiqamiz.

if (condition1) {statement } esle if (condition 2) {statement 2 } else {statement 3}

Bu yerda esa biz ikkita tekshirishni ishlatdik yani ikka marta tekshiradi agar tog'ri kelmasa unda else ning ichidagini ishlatadi.

dowhile Bu operatorimiz tsikl/qaytariluvchi ishlar uchun kerak bo'ladi.

do {
statement }

while (expression);

Bu yerda qandaydir (statement) bajariladi undan keyin esa tekshiruv ishi (while) bajariladi.

While Aynan dowhile kabidir farqi shundaki avval tekshiradi undan so'ngina agar qabul qilinda ishni bajaradi.

For Bu ham qaytarilishdir, yani while'lar kabi, yozilishi

for (initialization; expression; postloopexpression) {statement}

for in -Bu asosan obyektning xususiyatlari bilan aloqali ishlar uchun kerak bo'ladi.

For (property in expression) statement

Misol uchun window obyektini xususiyatlarini ko'rish uchun.

```
for (sProp in window)
```

```
{ alert (sProp); }
```

Bu yerda bizga bir qancha window obuyektining xususiyatlarini ko'rsatib beradi.

Labels Bu qandaydir joyga belgi qoyib ketishdir, yani keyinchalik shu yerga qaytish uchun.

break continue-Bu operatorlar, qanadydir qaytarilish operatorini sizga kerak bo'lgan joyda qilinayotgan ishini tugatishi uchun ishlatiladi.

Bu yerda oynamizga 4 soni chiqadi sababi 5 soni 5 ga qoldiqsiz bo'linadi va uning modali 0 ga teng boladi va break ishlab for'ning ishini tugatadi.

continue -esa kelgan joyidan yana boshiga borish uchun yani tsikl blokining boshiga borishni ko'rsatadi.

Switch-Bu operatorimiz aynan if else if else kabidir amma osonroq ko'rinishda, yani

```
switch (expression) {
```

```
case value: statement
```

```
break;
```

```
case value: statement
```

```
break;
```

```
...
```

```
default: statement
```

```
}
```

Functions-Bu javascriptda dasturlashning asosidir. JavaScript kodi istalgan joyida e'lon qilinadi, va uning ishi qandaydir dastur kodini bir necha bora ishlatsangiz va sizga qandaydir ma'lumotni ishlab chiqishi.

```
function function_name(arg1, arg2, ... argn){
```

```
statement
```

```
}
```

Agarda biz funktsiyamiz nimadir qaytarishini hohlasakchi? Bu xolatda return buyrug'ini ishlatamiz

```
function function_name(arg1, arg2, ... argn){
```

```
statement
```

```
.....
```

```
return qaytadigan_qiymat;
```

```
}
```

Array-Bu bizning o'zgaruvchanlarimizning bir turidir. Yani bitta o'zgaruvchi nomini ichida bir qancha o'zgaruvchilardir.

Siz funktsiya ichida yana bir funktsiya ochishingiz mumkin.

```
function myFuncA() {  
  statement;  
  myFuncB();  
  function myFuncB(){  
  }  
}
```

Mana ko'rganingizdek biz bir funktsiyani ichida ikkinchi funktsiyani ochdik va uni chaqirdik.

Anonim Function

Bu yerda biz qanday qilib anonimlashtirilgan funktsiya yaratish va ishlatishni ko'ramiz.Buning uchun:

```
var Nimadir=function (){statement}
```

kabi ishlatishingiz mumkindir.Buni chaqirish uchun Nimadir ni chaqirsangiz yetarlidir.

sort()-Arrayni ichidagilarni tartiblaydi.

splice()-Bu operatorimiz Array' ichidagi elementlarni o'chiradi yoki qo'shadi.

Yuqorida JavaScript ga berilgan tariflar ,ko'p qo'llaniladigan byuruyqlarini ko'rib chiqdik, qolgan qismini yaratgan tizimimizning dastur kodiga izoxlar berish bilan to'ldiramiz. Yana shuni xam etirof etish kerakki JavaScript da boshqa tillarga (C,C++,Java) qaraganda matnli ma'lumotlar bilan ishlash qulay,xech qanaqa til bibliotekalari chaqirilmaydi.

SQL(Structured Query Language- Strukturalangan So'rovlar Tili).

SQL tili ISO(International Standards Organization-Xalqaro Standartlash Tashkiloti) va ANSI(American National Standards Institute-Amerika Milliy Standartlar Instituti) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib bu til yordamida ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimida ishlash mumkin.Qolaversa Amaliy dasturlarni MBBT(Ma'lumotla bazasini boshqarish tizimi)ga bog'lash va ularga kerakli ma'lumotlarni yuborish, qabul qilish, qayta ishlash kabi vazifalarni bajarish uchun qo'llaniladi.Bu tildagi DCL (Data Control Language - ma'lumotlarni nazorat qilish tili)-ma'lumotlardan foydalanishga ruxsan berish yoki bermaslik kabi vazifalarni bajaradi.

DDL(Data Definition Language-Ma'lumotlarni turini belgilovchi til)-ma'lumotlar bazasidagi obektlar bilan ishlashni amalga oshiruvchi bo'lim.

DML(Data Manipulation Language-ma'lumotlarni boshqarish tili)-so'rov uchun foydalaniladigan va ma'lumotlarni o'zgartirish uchun qo'llaniladigan bo'lim.

DDL tarkibiga kiruvchi operatorlarga CREATE, ALTER, DROP lar kiradi.

Bu operatorlarning umumiy qo'llanilishi quyidagicha:

CREATE obekt_nomi, ALTER obekt_nomi, DROP obekt_nomi.

CREATE Ma'lumotlar Bazasi(MB)da yangi obektlarni yaratish uchun ishlatiladi.

CREATE DATABASE Ma'lumotlar_bazasi_nomi-Yangi ma'lumotlar bazasini yaratish.

ALTER DATABASE Ma'lumotlar_bazasi_nomi-Ma'lumotlar bazasiga o'zgartirishlar kiritish.

DROP DATABASE Ma'lumotlar_bazasi_nomi-Ma'lumotlar bazasini o'chirib tashlash.

DML.Ma'lumotlar Bazasidan kerakli ma'lumotni o'qib olish uchun SELECT operatoridan foydalaniladi.SELECT maydon1,maydon2,...,maydonN FROM jadval_nomi qo'shimcha_shartlar.-maydon1,maydon2...maydonN lar jadvaldagi maydonlar nomi bo'lib qaysi maydonlardagi ma'lumotlar ko'rsatilgan jadval_nomi dan foydalanuvchi uchun qo'shimcha_shartlar asosida keraklisini ko'rsatadi.

INSERT-ma'lumotlarni jadvalga qo'shish uchun ishlatiladi.umumiy sintaksisi:

INSERT INTO jadval_nomi (maydon1, maydon2, ..., maydonN) VALUES (maydon1_qiymati, maydon2_qiymati,...,MaydonN_qiymati).Bu erda maydon1 ga maydon1_qiymati,maydon2 ga maydon2_qiymati, maydonN ga maydonN_qiymati ni yozadi. Bu operator jadvalga ma'lumotlarni yangi qatordan qo'shadi.Agar ma'lumot qo'shiladigan jadvalda bo'sh maydonlar qolmasa jadvalning qaysi maydonlariga ma'lumotlarni qo'shish kerakligini belgilovchi parametrlarni ko'rsatish shart bo'lmay qoladi:INSERT INTO jadval_nomi VALUES(qiymat1,qiymat2,...qiymatN).

UPDATE.Jadvaldagi ma'lumotlarni yangilash uchun ishlatiladi.

UPDATE jadval1 SET maydon1=qiymat1 shart1-jadval1 ning maydon1 dagi qiymatlarning shart1 shartini qanoqlantirgan qatoriga qiymatni qiymat1 ga o'zgartirish

DELETE.ma'lumotlar bazasidagi ko'rsatilgan jadvaldan ma'lumotlarni o'chirish.

DELETE FROM jadval1-jadval1 dagi barcha ma'lumotlarni o'chirish

DELETE FROM jadval1 WHERE A-jadval1 dan A sharti bajarilgan barcha ma'lumotlar o'chiriladi. Qolgan SQL so'rovlari xaqida dasturda izoh tarzida berib o'tamiz.

Microsoft Access ma'lumotlarni boshqarish tizimi.

MBBT — MBni yaratish, uni dolzarb holatda ushlab turish, kerakli axborotni topishni tashkil etish va boshqa xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'ladigan dasturiy va til vositalari majmuasidir.

MBBT misoli sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- **DBASE dasturi;**
- **Microsoft Access;**
- **Microsoft Fox Pro for DOS;**
- **Microsoft Fox Pro for WINDOWS;**
- **Paradox for DOS;**
- **Paradox for WINDOWS.**

MB bilan ishlashga kirishishdan oldin ma'lumotlarni tasvirlash modelini tanlab olish kerak. U quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- axborotni ko'rgazmali tasvirlash;
- axborotni kiritishda soddalik;
- axborotni izlash va tanlashda qulaylik;
- boshqa Bazaga kiritilgan ma'lumotdan foydalanish imkoniyatining mavjudligi;
- MBning ochiqqligini ta'minlash (yangi ma'lumotlar va maydonlar qo'shish, ularni olib tashlash imkoniyatlari va xokazo).

MB bitta yoki bir nechta modellarga asoslangan bo'lishi mumkin. Har qanday modelga o'zining xossalari (parametrlari) bilan tavsiflanuvchi ob'ekt sifatida qarash mumkin. Shunday ob'ekt ustida biror amal (ish) bajarsa bo'ladi. MB modellarining uchta asosiy turlari mavjud: relyatsion, ierarxik va semantik tarmoq.

Relyatsion (lotin tilidagi relatio — munosabat suzidan olingan) modelda ma'lumotlarni saqlash uni tashkil etuvchi qismlari orasidagi munosabatlarga asoslangan. Eng sodda xolda u ikki o'lchovli massiv yoki jadvaldan iborat bo'ladi. Murakkab axborot modellari ana shunday jadvallarning o'zaro bog'langan to'plamidan iborat.

MBning ierarxik modeli pastki pog'onadagi yuqori pog'onadagiga buysinish tartibida joylashgan elementlar to'plamidan iborat bo'ladi va agdarilgan daraxt(graf)ni tashkil etadi. Ushbu model satx, tugun, bog'lanish kabi parametrlar bilan tavsiflanadi. Uning ishlash tamoyili shundayki, quyi satxdagi bir nechta tugunlar boglanish yordamida yuqoriroq satxdagi bitta tugun bilan boglangan bo'ladi. Tugun — bu ierarxiyaning berilgan satxida joylashgan elementning axborot modelidir.

MBning semantik tarmoq modeli ierarxik modelga o'xshashdir. U xam tugun, satx, bog'lanish kabi asosiy parametrlarga ega. Lekin semantik tarmoq modelida turli satxdagi elementlar orasida «erkin», ya'ni «har biri xamma bilan» ma'noli bog'lanish qabul qilingan.

Ko'pchilik MBlar jadval tuzilmasiga ega. Unda ma'lumotlar adresi satr va ustunlar kesishmasi bilan aniqlanadi. MBda ustunlar — maydonlar, satrlar esa yozuvlar deb ataladi. Maydonlar MBning tuzilmasini, yozuvlar esa, unda joylashgan ma'lumotlarni tashkil etadi.

Maydonlar — MB tuzilmasining asosiy elementlaridir. Ular ma'lum xususiyatlarga ega bo'ladilar. Har qanday maydonning asosiy xususiyati uning uzunligidir. Maydon uzunligi undagi belgilar soni bilan ifodalanadi.

Maydonning yana bir xususiyati, uning nomidir. Maydonda uning nomidan tashkari yana imzo xususiyati xam mavjud. Imzo — ustunning sarlavxasida aks ettiriladigan axborotdir. Uni maydon nomi bilan aralashtirib yubormaslik lozim. Agar imzo berilmagan bo'lsa sarlavxada maydon nomi yozib quyiladi. Turli tipdagi maydonlar turli maqsadlarda ishlatiladi va turli xossalarga ega bo'ladi.

Maydonlarning xususiyatlari bilan tanishib chiqamiz:

1. Oddiy matn maydoni. Belgilar soni 255 dan oshmasligi kerak.
2. MEMO — katta ulchamli matn maydoni. Belgilar soni 65535 dan oshmasligi shart. Oddiy matn va MEMO maydonida xisob ishlarini bajarib bo'lmaydi.
3. Sonli maydon. Sonli ma'lumotlarni kiritishga xizmat qiladi va xisob ishlarini bajarishda foydalaniladi. Bu maydon 1,2,4,8 va 16 baytli bo'lishi mumkin.
4. Sana va vaqt maydoni. Bu maydon sana va vaqtni bichimlangan xolda saqlab qo'yish imkonini beradi (01.06.01 20:29:59). 8 bayt ulchamga ega.
5. «Pul birligi» nomi bilan ataluvchi maydon. Bu maydondan xisob-kitob ishlarini yuritishda foydalaniladi.
6. Xisoblagich maydoni. Bu maydon 4 bayt uzunlikka va avtomatik ravishda ma'lum songa oshib borish xususiyatiga ega. Ushbu maydondan yozuvlarni nomerlashda foydalanish qulaydir.
7. Mantiqiy amal natijasini saqlovchi maydon. Bu maydon «rost» (true) yoki «yolg'on» (false) qiymatni saqlaydi. Maydon ulchami 1 bayt.
8. OLE — nomi bilan yuritiluvchi maydon. Bu maydon Excel jadvalini, Word xujjatini, rasm, ovoz va boshqa shu kabi ma'lumotlarni ikkilik sanoq sistemasida saqlaydi. Maydon ulchami 1 G baytgacha.
9. Giperssilka maydoni. Bu maydon belgi va sonlardan iborat bo'lib, biror fayl yoki saytga yo'l ko'rsatadi.
10. Qiymatlar ro'xatidan iborat bo'lgan maydon.- Bu maydon bir qancha qiymatlardan iborat bo'lgan ro'yxatdan tanlangan aniq bir qiymatni saqlaydi.

Jadvallar orasidagi munosabatlar ishonchli ishlashi va bir jadvaldagi yozuv orqali ikkinchi jadvaldagi yozuvni topish uchun jadvalda aloxida maydon — unikal maydon bo'lishini ta'minlash kerak.

Unikal maydon — bu qiymatlari takrorlanmaydigan maydondir.

Microsoft Office keng tarqalgan ofis ishlarini avtomalashtiruvchi dasturlar paketidir. Uning tarkibiga kiruvchi Access nomli dasturlar majmuasi hozirda MBBT sifatida keng o`rganilmoqda va qo`llanilmoqda.

MBning dastlabki oynasi soddaligi va tushunarligi bilan ajralib turardi. Undagi oltita ilova, dastur ishlaydigan oltita obektni tasvirlaydi. Bular «**Таблицы**» (jadvallar), «**Запросы**» (so`rovlar), «**Формы**» (shakllar), «**Отчеты**»(hisobotlar), «**Макросы**» (makrosslar), «**Модули**»(modullar).

«**Таблицы**» (jadvallar)-MBning asosiy obekti. Unda ma'lumotlar saqlanadi.

«**Запросы**»(so`rovlar)-bu ob'ekt ma'lumotlarga ishlov berish, jumladan, ularni saralash, ajratish, birlashtirish, o`zgartirish kabi vazifalarni bajarishga mo`ljallangan.

«**Формы**» (shakllar)-bu ob'ekt ma'lumotlarni tartibli ravishda oson kiritish yoki kiritilganlarni ko`rib chiqish imkonini beradi. Shakl tuzilishi bir qancha matnli maydonlar, tugmalardan iborat bo`lishi mumkin.


«**Отчеты**»(hisobotlar)-bu ob'ekt yordamida saralangan ma'lumotlar qulay va ko`rgazmali ravishda qog`ozga chop etiladi.

«**Макросы**»(makrosslar)-makrobuyruqlardan iborat ob'ekt. Murakkab va tez-tez murojat qilinadigan amallarni bitta makrosga guruxlab, unga jaratilgan tugmacha belgilanadi va ana shu amallarni bajarish o`rniga ushbu tugmacha bosiladi. Bunda amallar bajarish tezligi oshadi.

«**Модули**» (modullar)-Microsoft Access dasturining imkoniyatini oshirish maqsadida ichki Visual Basic tilida yozilgan dasturlarni o`z ichiga olivchi ob'ekt.

Bundan tashqari «**Страницы**»(saxifalar) nomli alohida ob'ekt ham mavjud. Bu ob'ekt HTMLkodida bajarilgan, WEB-sahifada joylashtiriladigan va tarmoq orqali mijozga uzatiladigan alohida obektdir.

Biror ma'lumotlar bazasini loyihalash va yaratish uchun Microsoft Access dasturini ishga tushirish kerak.Buning uchun WINDOWS oynasining masalalar panelidagi < **Пуск** >tugmachasi ustiga sichqoncha ko`rsatkichini olib borib chap tugmachasini bosamiz va < Программи > bo`limiga o`tib, Microsoft Access qismini tanlab olamiz.



Bizga ma'lumki, MBni mustaqil ravishda yaratganda u bo`sh bo`ladi. Uning ob'ektlarini foydalanuvchining o`zi yaratishiga to`g`ri keladi. Quyida biz MB obektlaridan jadvallar, so`rovlar, shakllar va xisobotlar yaratishni ko'rib chiqamiz.

Jadvallar yaratish. Bo`sh jadval yaratish. Microsoft Accessda bo`sh jadvalni yaratishning to`rt usuli mavjud:

— MBni to'raligicha yaratadigan MBning ustasini qo'llash. Bunday usta yangi bazani yaratadi xolos. Uning yordamida MBga yangi jadvallarni, shakllarni yoki xisobotlarni qo'shib bo'lmaydi.

— Jadvallar ustasi oldindan aniqlangan jadvallardan yaratilayotgan jadval uchun maydonni tanlash imkonini beradi.

— Jadval holatida ma'lumotlarni bevosita bo'sh jadvalga kiritish.

— Конструктор holatida jadval maketining barcha parametrlarini aniqlash.

Jadval yaratishda ishlatilgan usulning turidan kat'i nazar, har doim jadval maketini o'zgartirish, masalan, yangi maydonlar qo'shish, qiymatlarini o'rnatish va boshqalarni bajarish uchun Конструктор holatini qo'llash imkoniyati mavjud.

Jadvallar ustasi yordamida jadval yaratish.

1. MB oynasiga utish. Bir oynadan ikkinchi oynaga utish uchun F11 tugmachasini bosish kerak.

2. «Таблица» (Jadval) ilovasida «Создат» (Yaratish) tugmachasini bosish.


3. «Мастер таблиц» (Jadvallar ustasi) elementida sichqoncha tugmachasini ikki marta bosish. Natijada quyidagi oyna xosil bo'ladi

4. Jadvallar ustasining muloqot oynasidagi ko'rsatmalarga rioya qilish

So'rovlar yaratish. Amaliyotda dastlabki yaratilgan jadvaldan yozuvlarning bir qismini (ma'lum mezonlar buyicha) tanlab olish va tartiblash zarurati ko'plab kuzatilib turadi. Tanlash mezonlari bir qator shartlar majmuasi bilan aniqlanishi mumkin.


Tanlab olish so'rovlari. So'rovlarning eng Ko'p uchraydigan turi bu tanlab olish so'rovlaridir. Uning maksadi MB ma'lumotlari orasidan berilgan shartlarga buysunadigan ma'lumotlarni tanlab, natijaviy jadvalni chop etishdir. So'rovlarni yaratish uchun MBda maxsus so'rovlar tili mavjud. U SQL deb ataladi.

1. Baza uchun so'rov yaratishda MBning muloqot oynasidan «Запроси» (So'rovlar)ilovasini tanlash, so'ngra «Создат» (Yaratish) tugmachasini bosish kerak. Natijada quyidagi oyna ochiladi (3-rasm).



(3-rasm).

2. Ochilgan «Новый запрос» (Yangi so`rov) muloqot oynasida «Конструктор» bo`limini tanlash bilan so`rovni qo`lda ishlash holatida yaratish usuli belgilanadi.
3. «Конструктор» holatida so`rovni yaratish, MBdan mana shu so`rov asosini tashkil etadigan jadvallarni tanlashdan boshlanadi.
4. Jadvalni tanlash «Добавление таблицы» (Jadvalni qo`shish) muloqot oynasida bajariladi. Unda MBdagi barcha jadvallar ro`yxati aks ettirilgan bo`ladi.
5. Tanlangan jadvallar so`rov blankasining **yo`qori** qismiga yozib quyiladi. Buning uchun jadvallar tanlab olingandan so`ng «Добавит» (Qo`shish) tugmachasi bosiladi.
6. «Добавление таблицы» (Jadvalni qo`shish) oynasida uchta ilova «таблица» (jadvallar), «запросы» (so`rovlar) va «таблицы и запросы» (jadvallar va so`rovlar) borligiga e`tibor berish kerak.
7. Namuna bo`yicha so`rov blankasi ikkita panelga ega. Yuqori panelda so`rovga asos bo`ladigan jadvallar maydonlarining ro`yxati joylashadi (4-rasm).



(4-rasm).

8. Quyi panel satrlari so`rov tuzilmasini, ya'ni so`rov natijasida olingan ma'lumotlar joylashadigan natijaviy jadval tuzilmasini aniqlaydi.
9. Quyi paneldagi «Поле» (Maydon) satri blankining yuqori qismidagi maydonlar nomini olib utish bilan tuldiriladi. Yaratiladigan natijaviy jadvalning har bir maydoniga namuna buyicha so`rov blankining bitta ustuni mos keladi.
10. «Имя» (Nomi) satri maydonlar olib o`tilayotganda avtomatik ravishda tuldiriladi.
11. Agar «Сортировка» (Saralash) satrida sichqoncha tugmachasi bosilsa, saralash turlarini ko`rsatuvchi ro`yxatni ochadigan tugmacha paydo bo`ladi.

12. «Условие отбора» (Tanlash sharti) satrida natijaviy jadvalga kiritish uchun yozuvlarga quyiladigan mezon (shart) yoziladi. Uar bir maydon uchun uzining tanlash sharti bo'lishi mumkin.

13. So'rovni ishga tushirish «Вид» (Ko'rinish) tugmachasini bosish orqali bajariladi. Unda natijaviy jadval xosil bo'ladi.

14. Natijaviy jadvaldan chiqish va namuna buyicha so'rov blankasida yangi so'rovni yaratishga kaytish uchun «Вид» (Ko'rinish) tugmachasini takroran bosish kerak.

O'zgartirish so'rovlari. Tanlab olish so'rovlarining barcha turlari vaktinchalik natijaviy jadvallarni xosil qiladi. Bunda bazadagi jadvallar o'zgarishsiz koladi. Shunga karamasdan MBni yaratuvchilari uchun so'rovlarning maxsus guruxi mavjudki, ular o'zgartirish so'rovlari deyiladi. O'zgartirish so'rovlari — bu, bir amalni bajarish bilan bir nechta so'rovlarga o'zgartirish kiritadigan so'rovdur. Uning 4 turi mavjud: yuqotish, yangilash, yozuvlar qo'shish va jadval yaratish so'rovlari.

Yuqotish so'rovlari bir yoki bir necha jadvaldan yozuvlar guruxini yuqotadi. Yuqotish so'rovlari orqali yozuvni to'laligicha yuqotish mumkin. Uning ichidagi ayrim jadvallarni aloxida yuqotib bo'lmaydi.

Yangilash so'rovlari bir yoki bir necha jadvaldagi yozuvlar guruxida umumiy o'zgartirishlar kiritadi. Ushbu so'rov mavjud jadvallardagi ma'lumotlarni o'zgartirish imkonini beradi.

Yozuvlar qo'shish so'rovi bir yoki bir necha jadvaldagi yozuvlar guruxini boshqa bir yoki bir necha jadvalning oxiriga qo'shadi.

Jadval yaratish so'rovi bir yoki bir necha jadvalning barcha ma'lumotlari yoki ularning bir qismi asosida yangi jadvalni yaratadi.

Shakl — bu ma'lumotlarni kiritish uchun maydonlarga ega bo'lgan elektron blankadir. Quyida shakllarni yaratishning turli usullari bilan tanishib chiqamiz.

Foydalanuvchi shaklni o'zi mustaqil yaratishi yoki Shakl ustasidan foydalanishi

«Надпис» (Yozuv) boshqaruv elementi ozod maydondir. Unga kiritilgan matn ayni paytda shaklda qanday yozuv ko'rib chiqilishidan qat'iy nazar, o'zgarishsiz qoladi. Ushbu boshqaruv elementi ustida, so'ngra shaklda sichqoncha tugmachasi bosilsa, matn yozish uchun ramka paydo bo'ladi. Unga kerakli matnni kiritib, ENTER tugmachasini bosish kerak.

Jadval maydonlaridagi ma'lumotlar aks etadigan boshqaruv elementlari bog'langan maydon deyiladi. Ularni yaratish uchun uskunalar panelidagi «Поле» (Maydon) elementi ishlatiladi.

Xisobotlar yaratish. Xisobotlar Ko'p jixatdan shakllarga o'xshaydi. Shuning bilan birga shakllar va xisobotlar orasida muxim bir farq borki, u xam bo'lsa xisobotlar faqat ma'lumotlarni chop etishga muljallanganligidadir. Ularda ma'lumotlarni chiqarish uchun boshqaruv elementlariga

bo'lgan zarurat yuk. Shuning uchun xisobotlarda ro'yxatlardan, ro'yxatli maydonlardan va boshqa ayrim elementlardan voz kechish mumkin.

Xisobotlar uchun Jadvallar yoki Shakllar holatini o'rnatish mumkin emas. Xisobot uchun faqat «Конструктор» va «**Предварительный просмотр**» (Oldindan ko'rish) holatlarini tanlash mumkin.

Xisobotni yaratish uchun MBning muloqot oynasida «Отчеты» (Xisobotlar) ilovasini tanlash va «Создат» (Yaratish) tugmachasini bosish kerak. Natijada «Новый отчет» (Yangi xisobot) muloqot oynasi paydo bo'ladi.

Uning yordamida xisobotlarni uch xil usul bilan yaratish mumkin. Bu'lar: avtomatik tarzda, xisobotlar ustasi yordamida yoki ko'lda, mustaqil ravishda.

Xisobotlar ustasi barcha qiyin ishlarni o'z zimmasiga olib, xisobotni tez yaratish imkonini beradi. Xisobotlar ustasi chaqirilgandan so'ng ekranga chiqadigan muloqot oynalarida so'raladigan zarur ma'lumotlar kiritiladi va foydalanuvchining javoblari asosida xisobot yaratiladi.

«**АВТООТЧЕТ**» (Avtoxisobot) yordamida xisobot yaratish

Avtoxisobot xisobot yaratish vositasi bo'lib, unda Bazadagi jadvallar va so'rovlardagi barcha maydonlar va yozuvlar chiqariladi. Bunda asosiy qilinadigan ishlar quyidagilardan iborat.

1. MB muloqot oynasida «Отчеты» (Xisobotlar) ilovasini tanlash.

2. «Создат» (Yaratish) tugmachasini bosish.

3. «Новый отчет » (Yangi xisobot) muloqot oynasida quyidagi bo'limlardan birini tanlash:

— «АВТООТЧЕТ:В столбец » (Avtoxisobot: ustunli) — har bir maydon sarlavxasi chap yonida bo'lgan aloxida satrni tashkil etadi.

— « АВТООТЧЕТ : ленточный» (Avtoxisobot: tasmali) — har bir yozuv maydoni aloxida satrni tashkil etadi. Bunda sarlavxa har bir saxifaning ustida chop etiladi.

4. Xisobotga kiritiladigan ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi jadval yoki so'rovni tanlash.

5. OK tugmachasini bosish.

Xisobot ustasi yordamida xisobot yaratish

1. MB muloqot oynasida «Отчеты» (Xisobotlar) ilovasini tanlash.

2. «Создат» (Yaratish) tugmachasini bosish.

3. «Новый отчет » (Yangi xisobot) muloqot oynasida kerakli xisobot ustasini tanlash. Bunda ustaning bajarishi mumkin bo'lgan ishlari ro'yxati muloqot oynasining chap qismida chiqadi.

4. Xisobotga kiritiladigan ma'lumotlarni uz ichiga oluvchi jadval yoki so'rovni tanlash.

5. OK tugmachasini bosish.

6. Agar 3-qadamda xisobot ustasi, diagramma ustasi yoki yopishtiriluvchi suratlar ustasi tanlab olingan bo'lsa, ularga tegishli muloqot darchalarida chiqadigan ko'rsatmalarni bajarish lozim. Agar avtoxisobot ustalaridan biri tanlab olingan bo'lsa, xisobot avtomatik tarzdarish yaratiladi.

Yaratilgan xisobotga o'zgartirish kiritish kerak bo'lsa, buni «Конструктор» holatida bajarish mumkin.

Xisobot ustasisiz xisobot yaratish

1. MB muloqot oynasida «Отчеты» (Xisobotlar) ilovasini tanlash.
2. «Создат» (Yaratish) tugmachasini bosish.
3. «Новый отчет » (Yangi xisobot) muloqot oynasining «Конструктор» holatini tanlash.
4. Xisobot tuzishda ishlatiladigan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan jadval yoki so'rovlarni tanlash. (Agar Bo'sh xisobot yaratish kerak bo'lsa, hech qanday jadval yoki so'rov tanlanmaydi).
5. OK tugmachasini bosish.

Yangi xisobot «Конструктор» holatining xisobot oynasida paydo bo'ladi.

Xisobot tuzilmasi. Ular qanday xisobot tuzilmasi 5ta bo'limdan iborat: xisobot sarlavxasi, yuqori kolontitul, ma'lumotlar soxasi, quyi kolontitul, xisobot izoxlari.

Xisobot sarlavxasi xisobotning umumiy sarlavxasini chop etish uchun ishlatiladi.

Yuqori kolontitulni xisobot murakkab tuzilmali yoki Ko'p saxifali bo'lganda kichiq sarlavxalarni chop etish uchun ishlatish mumkin.

Ma'lumotlar soxasida baza jadvallarning maydonlaridagi ma'lumotlar bilan bog'liq boshqaruv elementlari joylashtiriladi. Bu elementlarga jadvallardan chop etish uchun ma'lumotlar beriladi. Boshqaruv elementlarining joylashtirish va tekislash tartibi yuqorida keltirilgan shakl tuzilmasini yaratishdek amalga oshiriladi.

Quyi kolontitul xuddi yuqori kolontituldek ishlatiladi.

Izox bo'limi qo'shimcha ma'lumotni joylashtirish uchun ishlatiladi.

1.2 Kutubxona bibliografik kartochkalarini aniqlaydigan dasturlarning tahlili.

Odatda skanerlangan kutubxona bibliografik kartochkalari rasm ko'rinishida bo'ladi. Uni kompyuter tushinadigan matnli formatga o'tkazish uchun maxsus dasturiy vositalardan foydalaniladi. Bu funksiyalarni bajaradigan dasturiy vosita sifatida ABBYY FineReader dasturidan foydalansa bo'ladi, lekin Bu dastur bibliografik ma'lumotlarni kartochkadan aniqlab olish imkoniyatiga ega emas. Bu dasturni yuklash quyidagicha amalgam oshiriladi.



Kartotekada joylashgan kartochkalardagi bibliografik ma'lumotlarni aniqlash uchun ABBAY FineReader dasturi fayl menyusidan dastlab skanerlanadi. <файл> <Сканировать Изображение...>. Bizga skanerlanayotgan xujjat to'liq ko'ringandan so'ng yoki dastur skanerlab bo'lgandan keyin tasvir ko'rinishida hosil bo'lgan bibliografik kartochkani matn ko'rinishiga o'tkazamiz. Buning uchun aniqlash(распознать) tugmasi bosiladi va oynanig chap burchagida dastur aniqlagan belgilar to'plami yani matn paydo bo'ladi. Bu matnni matnli fayl ko'rinishida saqlanadi. Bu matnli fayldagi bibliografik ma'lumotlarni ABBAY FineReader dasturi aniqlay olmaydi. Qolaversa respublikamiz AKM larida ishlatilayotgan tizimlarnig bibliografik kartochkalarni aniqlash imkoniyati mavjud emas.


Quyida bibliografik kartochkani skanerlash va matn formatiga o't kazishni ko'ramiz.



(8-rasm)


Yuqorida skanerlangan kutubxona bibliografik kartochkasi keltirilgan bo'lib uni matn formatini aniqlashni quyida ko'rib chiqamiz.

ABBYFineReader dasturi yuklangandan so'ng




1).


2). Skanerlangan bibliografik kartochka saqlanayotgan fayl ko'rsatiladi.




3). Natijada quyidagi oyna xosil bo'ladi.




Yoqorida xosil bo'lgan oynadan aniqlash tugmasi tanlanadi.




Va aniqlash jarayoni davom etayotganligi to'g'risida xabar oynasi chiqadi.




Aniqlash jarayoni tugagandan so'ng quyidagicha oyna xosil bo'ladi




Aniqlangan matnli formatdagi ma'lumotni MS Word o'qiy oladigan formatda saqlash quyidagicha amalga oshiriladi.



Natijada bibliografik ma'lumot saqlanadigan fayl nomi va turini ko'rsatish kerak bo'ladi.



Va  tugmasi tanlanadi.

Aniqlangan bibliografik ma'lumot saqlanadigan fayl matni quyidagicha.

82

Г 798

Грейди, Джеймс.

Шесть дней Кондора [Текст]: роман. Пер. с **англ.** Бони И. /Д. Грейди ; ред. **В. Иванов, - М. : ЭКСМО, 2007**[^]; СПб. : Домино, 2007. - 272 с. - * (Mystery Line). -1 экз. - ISBN 978-5-699-23226-Q-; -8800 сум

I

УДК 82(1-87)

Yuqorida tanish orqali aks etgan ortiqcha belgilarni inson tomonidan o'zgartirish kerak bo'ladi. So'ngra ishlab chiqilgan dasturiy kompleks yordamida bibliografiuk ma'lumotlar aniqlanadi.

1.3.Kutubxonada bibliografik kartochkalarni yozishning mezonlari va standartlari.

Bugungi kunda kutubxonada hujjatning mavjudligini belgilab beruvchi va kataloglarda saqlanadigan kartotekalardagi bibliografik ma'lumotlarni yozish davlatlararo standart GOST 7.1-2003 "Axborot, kutubxonachilik va nashriyotchilik bo'yicha standartlar tizimi" davlat standartiga rioya qilingan xolda amalga oshiriladi. Bibliografik yozuv bibliografik tasvir umumiy talablar va tuzish qoidalari GOST 7.1-2003 ning quyidagi bandlarida o'z ifodasini topgan

4.1. Bibliografik tasvir hujjatni umumiy tavsiflash va identifikatsiyalash (asliga aynan tenglashtirish) uchun mo'ljallangan va sohalar hamda tarkibiy qismlarning kelish tartibini va to'ldirilishini belgilovchi ma'lum qoida bo'yicha keltirilgan hujjat haqidagi bibliografik ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bibliografik tasvir bibliografik yozuvning asosiy qismidir. Bibliografik yozuv, shuningdek, sarlavha, indekslash tushunchalari (klassifikatsiya indeksi va predmet ruknlari), annotatsiya (referat), hujjatning saqlanish shifri, qo'shimcha bibliografik yozuvlar haqida ma'lumot, hujjatga ishlov berishning tugallangan vaqti, xizmatga oid ma'lumotlarni ham o'z ichiga olishi mumkin. Bibliografik yozuv sarlavhasining tuzilishi GOST 7.80, klassifikatsiya indeksi va predmet ruknlarining tuzilishi – GOST 7.59, Annotatsiya (referat) GOST 7.9 bo'yicha tuziladi.

4.2. Har qanday axborot tashuvchilardagi nashr qilingan (shu jumladan depozitga o'tkazilgan) va nashr qilinmagan hujjatlar – kitoblar, seriyali va boshqa davomli resurslar, notali, kartografik, audiovizual, tasviriy materiallar, meyoriy-texnik hujjatlar, mikroshakllar, elektron resurslar, uch o'lchovli suniy va tabiiy obektlar; hujjatlarning tarkibiy qismlari; bir xil va turli xil hujjatlar bibliografik tasvirni tuzish obektlari hisoblanadi.

4.2.1. Qismlar soni bo'yicha tasvir obektlari bir qismdan iborat (bir qismli obektlar) tasvir obektlari va ikki va undan ko'p qismdan iborat (ko'p qismli obektlar) tasvir obektlari ajratiladi. Bir qismli obekt – bir jismoniy tashuvchidagi bir hujjat yoki ko'p qismli hujjatning alohida bo'lagi: 1 jildli hujjat yoki ko'p jildli hujjatning alohida bir bo'lagi; to'plam, seriyali hujjat, yoki boshqa davomli resursning alohida tarkibiy qismidir.

Ko'p qismli obekt – bir xil yoki turli jismoniy tashuvchidagi alohida jismoniy qismlarning yig'indisini beradigan hujjat – ko'p jildli hujjat, to'plam hujjat, seriyali yoki boshqa davomli resursdir.

4.2.2. Obekt bir qismli hujjatning tarkibiy qismi yoki ko'p qismli hujjatning bo'limi bo'lishi ham mumkin.

4.3. Tasvirning tuzilishiga bog'liq holda bir darajali va ko'p darajali bibliografik tasvirlar ajratiladi.

4.3.1. Birinchi darajali tasvir bir darajadan iborat bo'ladi. U bir qismli hujjatga, umuman tugallangan ko'p qismli hujjatga, alohida jismoniy bo'lakka, shuningdek, ko'p qismli hujjatning jismoniy bo'laklari guruhiga tuziladi.

4.3.2. Ko'p darajali tasvir ikki yoki undan ortiq darajadan iborat bo'ladi. U ko'p qismli hujjat (ko'p jildli yoki umuman hujjat to'plami, umuman seriyali yoki boshqa davomli resurs)ga yoki alohida jismoniy bo'lakga, shuningdek, ko'p qismli hujjatning jismoniy bo'laklari guruhiga - ko'p jildli, to'plam hujjatning, seriyali yoki boshqa davomli resursning bir yoki bir necha jildiga (qismiga, sonlariga, chiqarilish sonlariga) tuziladi.

4.4. Bibliografik tasvir tarkibiga quyidagi sohalar kiradi:

- 1 - sarlavha va javobgarlik to'g'risida ma'lumotlar sohasi;
- 2 - nashr sohasi;
- 3- hujjatning o'ziga xos ma'lumotlari sohasi;
- 4 - chiqish ma'lumotlari sohasi;
- 5 - jismoniy tavsifnomasi sohasi;
- 6 - seriyalar sohasi;
- 7 - eslatmalar sohasi;
- 8 - standart raqami (yoki uning alternativi) va foydalanish shartlari sohasi.

4.5. Tasvir sohaları majburiy va yordamchi (ixtiyoriy)ga bo'linadigan qismlardan tashkil topadi. Tasvirda faqat majburiy qismlar yoki majburiy va yordamchi (ixtiyoriy) qismlar bo'lishi mumkin.

4.5.1. Majburiy qismlar hujjatni identifikatsiyalashni taminlovchi bibliografik ma'lumotlardan iborat bo'ladi. Ular har qanday tasvirda keltiriladi.

Agarda majburiy qism bibliografik qo'llanmaga kiritilgan tasvirlar uchun umumiy bo'lib, bibliografik qo'llanma sarlavhasiga yoki uning bo'limiga chiqarilgan bo'lsa, u holda qoidaga ko'ra har bir tasvirda takrorlanmaydi (masalan, bir muallifning asarlari ko'rsatkichida muallifning nomi, nashriyot katalogidagi noshirning nomi, asarlarning xronologik ro'yhatida nashr vaqti va h.k.).

4.5.2. Yordamchi (ixtiyoriy) qismlar hujjat to'g'risida qo'shimcha axborot beruvchi bibliografik ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Yordamchi (ixtiyoriy) qismlarni yig'ishni bibliografik tasvirni tuzadigan muassasa belgilaydi. U ma'lum axborot oqimi uchun doimiy bo'lishi lozim. Davlat bibliografiyasi markazlari va yirik universal ilmiy kutubxonalarning davlat bibliografik ko'rsatkichlari, kutubxona kataloglari (kartochkali va elektron shakllarda), ma'lumotlar bazasi tasvirlarida yordamchi qismlar yuqori to'liqlik bilan keltiriladi.

4.6. Sohalar va qismlar 5 bo'limdagi ro'yhatda ko'rsatilganidek belgilangan ketma-ketlikda beriladi. Alohida sohalar va qismlar takrorlanishi mumkin. Turli qismlarga tegishli, ammo

bir gapda grammatik bog'langan bibliografik ma'lumotlar oldingi qismda yoziladi. Sohalari va qismlarni bibliografik ma'lumotlar bilan to'ldirish va ularga oldingi o'rnatilgan tinish belgilarni keltirish qoidalarini hujjatning turidan va ma'lumot qanday axborot tashuvchida joylashganligidan qat'i nazar bibliografik tavsirning barcha obektlari uchun umumiy hisoblanadi. Hujjatlarning alohida turlari (tasviriy audiovizual, kartografik, nota hujjatlari, seriyali va boshqa davomli resurslar, meyoriy va texnik hujjatlarning alohida turlari va h.k.) ni tasvirlash uchun axborotning o'ziga xos xususiyati, uning jismoniy tashuvchisi, nashr xili va ushbu hujjat turi uchun xos bo'lgan boshqa ma'lumotlar to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettirilgan maxsus qismlar va o'ziga xos ma'lumotlar sohasi ko'zda tutilgan.

4.7. Bibliografik tasvirda tinish belgilari ikki vazifani – oddiy grammatik tinish belgilari va oldindan belgilangan tinish belgilari, ya'ni bibliografik tasvir sohalari va qismlari uchun tanituvchi xususiyatga ega bo'lgan belgilar vazifasini bajaradi, belgilangan tinish belgilari (shartli ajratish belgilari) turli tillarda nashr qilingan an'anaviy va mashinada o'qiladigan kataloglashtirish shakllaridagi yozuvlar – bosma kartochkada, bibliografik ko'rsatkichlarda, ro'yhatlarda, kompyuter monitori ekranida va h.k.lardagi tasvirning alohida qismlarini farqlashga yordam beradi.

4.7.1. Belgilangan tinish belgilari sohalari va qismlar oldida yoki ularning oxirida beriladi. Ularning qo'llanilishi til meyorini bilan bog'liq emas.

Tinish belgilari va matematik belgilar belgilangan tinish belgilari sifatida keladi:

- . – nuqta va tire;
- . nuqta;
- , vergul;
- : ikki nuqta;
- ; nuqta vergul bilan;
- ... ko'p nuqta;
- / qiya chiziq;
- // ikki qiya chiziq;
- () dumaloq qavslar;
- [] kvadrat qavslar;
- + qo'shuv belgisi;
- = tenglik belgisi.

Bibliografik tasvir oxirida nuqta qo'yiladi.

4.7.2. Tasvirning birinchi sohasidan tashqari har bir sohasidan oldin shu sohadagi birinchi bo'g'indan oldin nuqta va tire qo'yiladi. Agarda birinchi qism bo'lmasa, nuqta va tire belgisi keyingi

qism oldidan qo'yiladi va bu holda oldingi soha uchun belgilangan belgi tushirib qoldiriladi. Soha belgilaridan keyin ham saqlanib qolinadigan dumaloq va kvadrat qavs belgilari bundan mustasno.

4.7.3. O'ziga xos ma'lumotlar sohasi takrorlanganda eslatmalar sohasi va xalqaro standart raqami sohasi soha belgisi – nuqta va tireni takrorlaydi, seriyalar sohasi takrorlanganda esa har bir seriya to'g'risidagi ma'lumot alohida dumaloq qavsni ular orasiga nuqta va tire qo'yilmagan holda o'z ichiga oladi.

Birinchi darajali bibliografik tasvirni tuzish 5 badda keltirilgan.

5. Bir darajali bibliografik tasvir

5.1. Bir darajali bibliografik tasvirning tarkibi va tuzilishi

Bir darajali bibliografik tasvir belgilangan ketma-ketlikda va belgilangan tinish belgilarini qo'ygan holda beriladigan majburiy va yordamchi (ixtiyoriy) sohalar va tarkibiy qismlardan tashkil topadi. Quyidagi ro'yhatda yordamchi tarkibiy qismlar qiya bosma harflar bilan ajratilgan. Ro'yhatda sohaning tayinlangan belgilari ko'rsatilmagan. Yulduzcha bilan belgilangan tarkibiy qismlar va undan oldingi belgilangan belgilar tasvirda takrorlanishi mumkin. Sohalarning takrorlanishi mumkinligi – tegishli bo'limlarga qaralsin.

Bibliografik tasvir sohalari va tarkibiy qismlarining ro'yxati

Sarlavha sohasi va	Asosiy sarlavha
javobgarlik to'g'risida	[] Materialning umumiy ma'lumot
ifodalanishi	* = Parallel sarlavha
	* : Sarlavhaga tegishli ma'lumot
	Javobgarlik to'g'risida ma'lumot
	/ Birinchi ma'lumotlar
	* ; Boshqa ma'lumotlar
Nashr sohasi	Nashr to'g'risida ma'lumot
	* = Nashr to'g'risida parallel ma'lumotlar
	Nashrga tegishli javobgarlik
	to'g'risida ma'lumot
	/ Birinchi ma'lumot
	* ; Keyingi ma'lumotlar
	* , Nashr to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlar
	Nashr to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlar-ga tegishli
	javobgar-lik to'g'risida malu-mot
	/ Birinchi ma'lumotlar

O'ziga xos ma'lumotlar sohasi	* ; Keyingi ma'lumotlar
Chiqish ma'lumotlari sohasi	Nashr qilinishi, tarqatilish joyi Birinchi chiqish joyi * ; Keyingi chiqish joyi * : Noshir, tarqatuvchi va h.k.lar nomlari Noshir, tarqatuvchi va boshqalarning vazifa-si to'g'risida ma'lumot * , Nashr qilinish, tarqatilish vaqti va h.k. * : Tayyorlangan joyi ,) Tayyorlovchining nomi Tayyorlangan vaqti
Jismoniy tavsifnomasi sohasi	Materialning o'ziga xos ifodalanishi va hajmi : Jismoniy tavsifnomasi to'g'risida boshqa ma'lumotlar ; O'lchamlari * + Ilova material to'g'risida ma'lumot
Seriylar sohasi	(Seriyaning asosiy sarlavhasi yoki seriya ostida chiqqan nashr sarlavhasi * = Seriyaning yoki seriya ostida chiqqan nashrning parallel sarlavhasi * : Seriya yoki seriya ostida chiqqan nashr sarlavhasiga tegishli ma'lumot Seriya yoki seriya ostida chiqqan nashr sarlavhasiga tegishli ma'lumotlar Seriya yoki seriya ostida chiqqan nashrning javobgarlik to'g'risida ma'lumoti / Birinchi ma'lumotlar * ; Keyingi ma'lumotlar

, Ushbu seriya yoki seriya ostida chiqqan nashr
berilgan serial huj-jatning xalqaro stan-dart
raqami (ISSN)
;) Seriya yoki seriya ostida chiqqan nashrning
chiqish raqami

Eslatmalar sohasi

Standart (yoki uning alʼterna- tivi) va ommabopligi shart- lari raqami sohasi	Standart (yoki uning alʼternativi) raqami = muhim sarlavha * : ommabopligi shart-lari va (yoki) narxi () sohaning qismlariga qo'shimcha ma'lumotlar
---	--

5.2.3.4. Materialning umumiy ifodalanishi asosiy sarlavhadan keyin bosh harflar bilan bibliografiyalovchi muassasa tilida va (yoki) yozuvida kvadrat qavsda beriladi. Materialni umumiy ifodalashda so'zlar qisqartirilmaydi.

5.2.4.1. Parallel sarlavha asosiy sarlavhaning boshqa tildagi yoki boshqa yozuvdagi ekvivalenti sifatida asosiy sarlavha kabi tasvirda berish shakllari va qoidalariga ega. Parallel sarlavha oldida tenglik (=) belgisi qo'yiladi.

Olinayotgan axborot manbaida bir necha parallel sarlavha mavjud holda ular manbada ko'rsatilgan izchillikda beriladi va bir-biridan tenglik belgisi bilan ajratiladi. Parallel sarlavhalar sonini bibliografiyalovchi muassasa belgilaydi.

5.2.5.3. Sarlavhaga tegishli ma'lumotdan oldin ikki nuqta (:) belgisi qo'yiladi.

5.2.6. Javobgarlik to'g'risida ma'lumotlar.

5.2.6.1. Javobgarlik to'g'risida ma'lumotlar tasvir obekti bo'lgan manaviy, badiiy yoki boshqa mazmundagi asarni yaratishda ishtirok etgan shaxs yoki tashkilot to'g'risidagi ma'lumotni o'z ichiga oladi.

5.2.6.2. Javobgarlik to'g'risida ma'lumot olinayotgan axborot manbaida qanday shaklda berilgan bo'lsa, shu holda yoziladi.

5.2.6.3. Javobgarlik to'g'risida ma'lumotlar shaxsning oti va (yoki) tashkilotning nomi hamda tasvir obekti bo'lgan asarni yaratishda ishtiroki darajasini aniqlab beruvchi so'zdan tashkil topishi mumkin.

5.2.6.4. Javobgarlik to'g'risidagi birinchi ma'lumotdan oldin qiya chiziq qo'yiladi□ qolgan ma'lumotlar guruhi bir-biridan nuqta vergul (;) bilan ajratiladi. Guruh ichidagi bir xil ma'lumotlar vergul bilan ajratiladi. Ma'lumotlarni berish tartibi ularning poligrafik rasmiylashtirilishi yoki javobgarlik darajasidan qat'iy nazar olingan axborot manbaida berilgan ketma-ketligiga qarab belgilanadi.

5.3.1. Soha bu nashrning oldingi nashrga nisbatan tuzatish va o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida axborotni o'z ichiga oladi.

5.3.2. Nashr haqidagi ma'lumotlar olinayotgan axborot manbaida ifodalangan va mavjud ketma-ketlikda beriladi. Ular odatda “variant”, “versiya”, “chiqishi”, “tahririyat”, “reprint” va h.k. so'zlarining o'rniga qo'llaniladigan “nashr” so'zidan yoki ularning boshqa tillardagi ekvivalentidan, shuningdek, uni oldingi nashridan ajratib turuvchi boshqa terminlardan iborat bo'ladi.

5.3.3. Javobgarlik to'g'risidagi ma'lumotlar agar ular asarning aniq o'zgartirilgan nashriga daxldor bo'lsa nashr sohasiga yoziladi. Ular nashr to'g'risidagi ma'lumotdan keyin yozilib, ulardan oldin qiya chiziq qo'yiladi. Javobgarlik to'g'risida ma'lumotlar va tinish belgilarini qo'yishning boshqa qoidalari 5.2.6. bandga qaralsin.

5.3.4. Agar hujjatda ushbu qayta nashr qilingan, qayta ko'chirib bosilgan nashr xususiyatlari va hokazolar to'g'risida alohida ifodalangan qo'shimcha ma'lumotlar bo'lsa, nashr Haqidagi qo'shimcha ma'lumotlar tasvirda beriladi. Ular nashr sohasining oldingi ma'lumotidan keyin yoziladi va vergul bilan ajratiladi.

5.3.5. Nashr haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarga tegishli javobgarlik to'g'risidagi ma'lumotlar bu ma'lumotlardan keyin javobgarlik to'g'risida ma'lumotlarni berish qoidalari bo'yicha yoziladi (5.2.6. bandga qaralsin).

5.5.2. Nashr joyining nomi, tarqatilishi olingan axborot manbaida ko'rsatilgan shaklda va kelishikda beriladi.

5.5.2.2. Bir-biridan nuqta-tire bilan ajratiladigan ikkinchi va keyingi nashr joylarining nomlari berilishi mumkin. Bibliografiyalovchi muassasa joylashgan nashr joyi muHim deb topiladi.

5.5.3. Noshirning, tarqatuvchining oti (nomi) u tegishli bo'lgan nashr joyi to'g'risidagi ma'lumotdan keyin beriladi va ikki nuqta bilan ajratiladi. Ma'lumotlar olinayotgan axborot manbaida qanday ko'rsatilgan bo'lsa shu shaklda, shaxs yoki tashkilot (nashriyotdan boshqa) bajaradigan vazifasini ko'rsatuvchi so'z yoki iboralarni saqlagan holda beriladi. Noshir, tarqatuvchilar va h.k.larning mulkchilik shakli (AJ, OOO, ltd, Inc va h.k.) ma'lumotlar, qoidaga muvofiq tushirib qoldiriladi.

Axborot manbaida

«O'qituvchi» nashriyoti

Tasvirda:

:O'qituvchi

5.5.4. [Noshir], [tarqatuvchi] so'zlari uning funksiyasini tushuntirib bera olsa, kvadrat qavs ichida noshirning oti (nomi)ga qo'shib beriladi. Ma'lumot sohaning oldingi ma'lumotlarida bo'lmasa qo'shiladi.

.- B.M.: MOROZ RECORDS [Изд]: РМГ РЕКОРДЗ [дистрибьютор]

. – London: Harvard univ.press [distributed]

Agar obektning chiqish ma'lumotlarida ko'rsatilgan shaxs yoki tashkilotning ismi (nomi) vazifasini aniqlab bo'lmasa, u holda ular tasvirda noshir sifatida beriladi.

5.5.5. Nashr vaqti sifatida tasvir obekti bo'lgan hujjatning bosilgan yili beriladi. Yil arab raqami bilan berilib, undan oldin vergul qo'yiladi.

5.5.6. Agar 5.5.2-5.5.3 bandlarda sanalgan chiqish ma'lumotlari bo'lmasa tasvirda tayyorlangan joyi va tayyorlovchining oti beriladi. Ma'lumotlar aytib o'tilgan bandlarda bayon qilingan qoidalar bo'yicha dumaloq qavsga olinib beriladi.

5.6.2. Jismoniy tavsifnomasi sohasida jismoniy birlikning soni (arab raqami bilan) va materialning o'ziga xos belgisi to'g'risida ma'lumotlar beriladi. Materialning turi to'g'risidagi ma'lumotlar bibliografiyalovchi muassasa tilida beriladi.

5.6.3. Tasvir obektining boshqa jismoniy tavsifi sifatida rasmlar, tasvir obekti ishlangan materiallar va h.k. to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi mumkin. Bu ma'lumotlardan oldin ikki nuqta qo'yiladi. Har bir keyingi ma'lumot oldingisidan vergul bilan ajratiladi.

5.6.4. Tasvir obektining o'lchamlari zarur hollarda nuqta verguldan keyin ko'rsatiladi.

5.6.5. Ilova material to'g'risidagi ma'lumot sohaning ohirgi qismi bo'ladi, undan oldin qo'shuv belgisi (+) qo'yiladi. Jismoniy birliklar soni va ilova materialining nomi (materialning o'ziga xos belgisidan foydalanib), shuningdek uning hajmi va (yoki) o'lchami to'g'risida ma'lumotlar arab raqamlarida ko'rsatiladi.

5.7.3. Seriyaning asosiy sarlavhasi 5.2.2. va 6.3.3.1.2, 6.3.3.1.3. bandlarida bayon qilingan obektning asosiy sarlavhasini berish qoidalari bo'yicha beriladi.

5.7.4. Seriyaning parallel sarlavhasi 5.2.4 bandga muvofiq beriladi.

5.7.5. Seriya sarlavhasiga tegishli ma'lumotlar 5.2.5 bo'yicha beriladi. Axborot manbaida mavjud bo'lgan seriyaning qayta nashr etilishiga taalluqli ma'lumotlar ham tasvirning shu qismida ikki nuqta bilan ajratilgan holda beriladi.

5.7.6. Agar javobgarlik to'g'risida ma'lumot seriyaga to'liq tegishli bo'lsa va uni identifikasiyalash zarur bo'lsa, u seriya sohasida beriladi. Boshqa hollarda ular seriya nashriga

tuzilgan sarlavha va javobgarlik to'g'risida ma'lumot sohasida yoki eslatmalar sohasida joylashtiriladi. Javobgarlik to'g'risida ma'lumotlar 5.2.6 bandiga muvofiq beriladi.

5.7.10. Ushbu seriya yoki seriya ostida chiqqan nashrga berilgan serial nashrning xalqaro standart raqami (ISSN) axborot manbaida ko'rsatilgan bo'lsa, beriladi. Raqam ISSN qisqartma so'zidan keyin bo'sh joy qoldirilgan holda standart shaklida beriladi va chiziqcha bilan ajratilgan 4 raqamdan iborat ikki guruh ko'rsatiladi. Raqamdan oldin vergul qo'yiladi.

5.8.2. Har bir eslatma oldidan nuqta va tire qo'yiladi yoki eslatma yangi satrdan boshlanadi. Kirish so'zlari eslatmaning asosiy mazmunidan ikki nuqta va oraliq joy bilan ajratiladi; Ikki nuqtadan oldin oraliq joy qoldirilmaydi.

5.9.1. Standart raqami sohasida tasvir obektiga berilgan Xalqaro standart raqamlari: kitobning Xalqaro standart raqami (ISBN) yoki serial nashrning Xalqaro standart raqami (ISSN) yoki belgilangan tartibda tasvir obektiga berilgan Har qanday Xalqaro raqam keltiriladi. Standart raqamlari qabul qilingan qisqartma so'zlar bilan bo'sh joy va chiziqcha qo'yilgan holda beriladi.

5.9.5. Muhim sarlavha – seriyali nashrni identifikatsiyalash va ro'yxatga olish uchun ISSN berilishi jarayonida belgilangan sarlavhadir. U bu sohada ISSN dan so'ng tenglik belgisidan keyin beriladi.

5.9.6. Foydalanish qoidalari narxi to'g'risidagi axborotni yoki obektdan foydalanishning boshqa imkoniyatlari haqidagi qisqacha ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Undan oldin ikki nuqta qo'yiladi.

1- bob bo'yicha xulosa.


Xulosa qilib shuni aytish mumkinki yuqoridagi dasturlash vositalari yordamida keltirilgan standartlar va bibliografi kartochka yozish qoida va mezonlarini to'liq qamrab olgan xolda shunday dasturiy kompleks ishlab chiqish zaruriyati paydo bo'ldi. Bu dasturiy vosita kotologlashtiruvchi ishini osonlashtirish va ish unimdorligini oshirishga qaratilgan bo'lishi shart bo'lib qoladi. Mazkur dasturiy kompleks yordamida faqat matn formatida saqlangan MS WORD matn muharriri o'qiy oladigan matnlardan bibliografik ma'lumotlarni aniqlay oladi, qayta ishlaydi. Matn formatiga o'tkazish uchun bibliografik kartochkani skanerlash kerak va skanerlangan kartochkani ixtiyoriy matn formatini aniqlovchi dasturiy vosita yordamida MS Word matn muharririga otkazish kerak. Mazkur dasturiy kompleks yordamida katalogizator bibliografik kartochkaning matn formatini aniqlashdagi xar-xil kamchilliklarni qo'lda to'g'rilash imkoniniga ega bo'lishi kerak bo'ladi.

2-BOB. KUTUBXONA BIBLIOGRAFIK KARTOCHKALARINI ANIQLAYDIGAN ALGORITMLAR

2.1. Masalani yechish algoritmlari.


Kutubxona kartotekalarida saqlanayotgan kartochkalardagi ma'lumotlarning elektron shaklini yaratish yoki kutubxona elektron katalogiga qo'shish uchun quyidagi algoritm bo'yicha ishlar amalga oshirilishi kerak.


Kutubxona fondida saqlanayotgan xujjatlar to'g'risidagi ma'lumot yozilgan kartochkalardagi bibliografik ma'lumotlarni tanib olish kerak bo'ladi. Va tanib olingan ma'lumotlar elektron bazasi yaratiladi yoki EK ga qo'shiladi.





2.2. Bibliografik ma'lumotlarni aniqlash algoritmlari.


Bibliografik ma'lumotlar matn ko'rinishida bo'lganda uni aniqlash algoritmlari bibliografik tasvir yaratish standartiga asosan quyidagicha:












Yuqoridagi algoritmgga qo'shimcha qilib, kutubxona bibliografik kartochkasida saqlanayotgan ma'lumot faqat bibliografik tasvirdan iborat bo'libgina qolmay xujjatning soha klassifikatsiyasi va kutubxonada saqlash joyi hamda boshqa ma'lumotlar keltirilgan bo'ladi. Bu sanab o'tilgan ma'lumotlarni barchasini dasturda qo'shimcha ma'lumot sifatida oldim.


Yuqotidagi algorotmgga qo'shimcha yani yuqoridagi byuruqlarni bajaradigan algoritmi quyida keltirilgan.



3-BOB. KUTUBXONA BIBLIOGRAFIK KARTOCHKALARINI ANIQLASHNI DASTURIY KOMPLEKS KO'RINISHIDA ECHISH.

3.1. Dasturiy kompleksning funksional strukturasi

Dasturiy Kompleksning bajaradigan ishlari va funksional strukturasi quyidagicha:



Bibliografik yozuvni tanib olish-kartochkada yozilgan va matn formatiga o'zgartirilgan faylda saqlanadigan bibliografik ma'lumotlarni bibliografik tavsif yozish qoidalari va standartlarida ishlatiladigan belgilardan va qoidalaridan foydalanib bibliografik ma'lumotlarni aniqlaydi va ajratib oladi. Bibliografik tavsif yozish qoidalari va standartlari yuqorida keltirilgan.

Bibliografik ma'lumotlarni saqlash-Ma'lum qoida va standartlar asosida Bibliografik yozuvni tanib olish tizim osti aniqlangan bibliografik ma'lumotlarni ma'lumotlar bazasiga yozadi.

Qidirish-Foydalanuvchi uchun kerak bo'lgan ma'lumotlarni yuqoridagi tizim-ostilar natijasi xisoblangan ma'lumotlar bazasidan qidiradi.

Chiqarish- Foydalanuvchi uchun kerak bo'lgan ma'lumotlarni, qidirish natijasida topilgan ma'lumotlarni foydalanuvchiga taqdim etadi.


MB-Barcha bibliografik ma'lumotlar saqlanadigan Ma'lumotlar Bazasi.

MBBT-ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi.


Kiritish – tizim ostida bibliografik ma'lumotlarni aniqlash tizim ostiga kiruvchi ma'lumotlarni taminlaydi.

3.2. Dasturiy kompleksning masalalar sxemasi.


Bibliografik yozuvni tanib olish- tizim-ostining masalalar sxemasi.



Bibliografik ma'lumotlarni saqlash- tizimostining ning masalalar sxemasi.



Qidirish- tizimostining masalalar sxemasi.



Chiqarish- tizimostining masalalar sxemasi.



Kiritish- tizimostining masalalar sxemasi.



Bu tizim ostida **Bibliografik yozuvni tanib olish** tizim ostiga kiruvchi ma'lumotlarni kiritib xamda rasm ko'rinishidan matn formatiga aniqlangan ma'lumotni kompyuter xotirasiga massiv shaklida kiritishni amalga oshiradi.

Masalalar ko'rsatkichlari.

Masalani kodi	Masalani nomi	Masalani maqsadi	Kiritiladigan ma'lumot	Chiqariladigan ma'lumot
---------------	---------------	------------------	------------------------	-------------------------


1	2	3	4	5
1001	TBB	Kiritilayotgan ma'lumot bexato aniqlanganligini tekshiradi	(M1)Matnli fayldagi BT	(M1)Tekshirilgan BT
1002	KBKQ	Ko'rinmas belgilarni ko'rinadigan qilish	(M1)Tekshirilgan BT	(M2)O'zgartirilgan BT
1003	Soxa 1	Bibliografik tasvirning 1-sohasidagi ma'lumotlarni tanib olish	(M2) O'zgar-tirilgan BT	(Ma1)BTning 1-sohasiga te-gishli BM
1004	Soxa 2	Bibliografik tasvirning 2-sohasidagi ma'lumotlarni tanib olish	(M2) O'zgar-tirilgan BT	(Ma2)BTning 2-sohasiga te-gishli BM
1005	Soxa 3	Bibliografik tasvirning 3-sohasidagi ma'lumotlarni tanib olish	(M2) O'zgar-tirilgan BT	(Ma3)BTning 3-sohasiga te-gishli BM
1006	Soxa 4	Bibliografik tasvirning 4-sohasidagi ma'lumotlarni tanib olish	(M2) O'zgar-tirilgan BT	(Ma4)BTning 4-sohasiga te-gishli BM
1007	Soxa 5	Bibliografik tasvirning 5-sohasidagi ma'lumotlarni tanib olish	(M2) O'zgar-tirilgan BT	(Ma5)BTning 5-sohasiga te-gishli BM
1008	Soxa 6	Bibliografik tasvirning 6-sohasidagi ma'lumotlarni tanib olish	(M2) O'zgar-tirilgan BT	(Ma6)BTning 6-sohasiga te-gishli BM
1009	Soxa 7	Bibliografik tasvirning 7-sohasidagi ma'lumotlarni tanib olish	(M2) O'zgar-tirilgan BT	(Ma7)BTning 7-sohasiga te-gishli BM
1010	Soxa 8	Bibliografik tasvirning 8-sohasidagi ma'lumotlarni tanib olish	(M2) O'zgar-tirilgan BT	(Ma8)BTning 8-sohasiga te-gishli BM
1011	Soxa 9	Bibliografik tasvirda berilgan boshqa ma'lumotlar aniqlash	(M2) O'zgar-tirilgan BT	(Ma9)BT dagi boshqa ma'lumotlar
2001	BSUS	Bazaga saqlash uchun so'rov tuzish	(Ma1, Ma2, Ma3, Ma4, Ma5, Ma6, Ma7, Ma8, Ma9)	(Ma10)bazaga saqlash uchun so'rov
2002	BY	Bazaga yozish	(Ma10)	(Ma 13)BY lar to'plami
3001	QST	Qidiruv so'rovini tuzish	(Ma11)qidirilayotgan ma'lumot	(Ma12) Qidiruv so'rovi
3002	BQ	Bazadan qidirish	(Ma12) Qidiruv so'rovi	(Ma14) Topilgan natija
4001	IST	Foydalanuvchi uchun interfeys yaratish	(Ma14) Topilgan natija	Foydalanuvchi interfeysi
4002	MK	Topilgan natijalarni chiqarish	(Ma14) Topilgan natija	Natija

5001	KT	Fayldagi ma'lumotlarni Kiritsh (boshqa tizim ostilariga)	(Ma16)Matnli fayl	(Ma17) Matnli fayl
------	----	--	----------------------	-----------------------

3.3. Dasturiy kompleksning blok-sxemasi.


Bibliografik yozuvni tanib olish-tizim osti blok sxemasi. Bu tizim ostining umumiy blok sxemasi 2-bobda to'liq keltirilgan bo'lib uni to'ldiruvchi blok sxemalar quyida keltirilgan.

n-chi marta uchragan “. -” dan n+1 marta uchragan “. -” gacha matn deb ol byurug'i blok sxemasi.




M-bibliografik tasvir, a- boshlang'ich pozitsiya, b-oxirgi pozitsiya, ch-ko'rsatkich belgi (" - "), Mtn- qaytib chiquvchi ma'lumot.

Bibliografik ma'lumotlarni saqlash-tizim osti uchun umumiy blok-sxema.




A-aniqlangan bibliografik ma'lumotlar saqlanadigan massiv
S –Ma'lumotlar bazasiga yuboriladigan so'rov

Qidirish-tizim osti uchun umumiy blok-sxema.



T-MB ning qaysi maydonidan qidirishni saqllovchi ma'lumot (interfeysdan tanlanadi).
Q-qidiruv so'zi (foydalanuvchi tomonidan kiritiladi)


Chiqarish- tizim ostining umumiy blok-sxemasi.



N –topilgan natijalar

3.4. Dasturiy kompleksning tashkiliy strukturasi.

Yaratilgan dasturiy kompleksning AKM da qo'llanilish o'rni.



AKM raxbari axborot kutubxona markazi ishini boshqaradi. Undagi bo'limlar ishini nazorat qiladi.

Avtomatlashtirish bo'limi-AKM ning ish jarayonlarini avtomatlashtiradi. Va shu bilan birga kutubxona bibliografik kartochkalarini skanerlaydi, skanerlangan bibliografik kartochkani matn formatiga o'tkazadi. So'ngra EB ga saqlaydi.

Kataloglashtiruvchi AIJ matn formati aniqlangan kutubxona bibliografik kartochkalarini EB dan o'qib olib undan yaratilgan dasturiy kompleks yordamida bibliografik ma'lumotlarni aniqlaydi va aniqlangan bibliografik ma'lumotlarning Elektron Bazasini shakllantiradi.

Administrator AIJ Kataloglashtiruvchi AIJ shakllantirgan Elektron Bazani kutubxona EK ga qo'shilishini nazorat qiladi. Elektron bazadan Elektron Katalogga ma'lumotlarni kommunikativ formatlardan foydalanib o'tkaziladi.

3.5. Dasturiy kompleksdan foydalanish qo'llanmasi.


Dasturiy kompleks ishlashi uchun texnik shartlari:

Operativ xotira da bo'sh joy-100 M bayt

Doimiy xotiradagi bo'sh joy-1 M Bayt

Protsessorning xisoblash tezligi 2.2 GGrs


Mazkur bitiruv malakaviy ishida yaratilgan dasturiy kompleksning bibliografik kartochkani aniqlash uchun foydalaniladigan interfeys quyidagicha




(5-rasm)


Matn formati aniqlangan bibliografik kartochkadan bibliografik ma'lumotlarni aniqlash uchun quyidagi ketma-ketlikda ishlar amalgam oshiriladi.

- 1). Matn formatdagi bibliografuik kartochka tanlanadi.buning uchun **Обзор...** tugmasi bosiladi. Hosil bo'lgan muloqot oynasidan bibliografik kartochkaning matn formati saqlangan fayl ko'tsatiladi(6-rasm)




(6-rasm)


Va  tugmasi bosiladi. Natijada bibliografik ma'lumotlar yozilgan fayldan bibliografik ma'lumotlar aniqlanadi(7-rasm)



(7-rasm)

Kartochkani aniqlashda mavjud kamchilliklar inson tomonidan to'g'rilanadi.



Qizil chiziq bilan belgilangan sohadagi mavjud belgilarni dastlabki bibliografik kartochkaga qarab to'g'rilanadi(bibliografik kartochkaning dastlabki ko'rinishi 8-rasmda ko'rsatilgan). Va  tugmasi bosiladi. Va natijada quyidagi natijaga ega bo'lamiz.

kartochka

Эмуляция IE7

qidirish

faylni tanlang D:\diplom\qo'shimcha\scaner\kka\k1.doc

Обзор... aniqla Saqlash

82
Г 798
Грейди, Джеймс
Шесть дней Кондора [Текст]: роман. Пер. с англ. Бони И. /Д. Грейди ; ред. В. Иванов, - М. :ЭКСМО, 2007; СПб. : Домино, 2007. - 272 с. - (Mystery Line). -1 экз. - ISBN 978-5-699-23226-0-:8800 сум .
УДК 82 (1-87)

Boshqa ma'lumotlar bazasidagi shifr raqami 82


Avtor belgisi Г 798

Muallif familiyasi Грейди

Inisial Джеймс

Sarlavha va javobgarlik to'g'risidagi ma'lumotlar sohasi

Aniqlangan bibliografik ma'lumotni Elektron bazaga saqlash uchun **Saqlash** tugmasi bosiladi va bizga dasturiy kompleks elektron bazaga saqlaganlik xaqida xabar chiqadi.



Biz saqlagan bibliografik ma'lumotni EB dan qidirish uchun qidirish yozuvi ustiga sichqoncha ko'rsatkichi bilan bosiladi. Bizga EB dan qidirish uchun oyna hosil bo'ladi.

D:\diplom\diplom_dastur\searchandedit.html - Windows Internet Ex...

D:\diplom\diplom_das Google

Избранное

D:\diplom\diplom_dastur\s... Эмуляция IE7

yangi kartochkani aniqlash

QIDIRISH


Muallif familiyasi

Bazani to'liq ko'rish Qidir tozala

Готов Мой компьютер 100%

Muallif familiyasi Грейди bo'lgan xujjatlarning bibliografik kartochkasini Elektron Bazadan qidirish uchun muallif familiyasini 9-rasm dagidek kiritiladi va **Qidir** tugmasi bosiladi. Ekranda shu avtor familiyasi muallif vazifasida ishtirok etgan barcha bibliografik kartochkalar soni va qisqacha bibliografik tasviri keltiriladi.

To'liq bibliografik tasvirni ko'rish uchun topilgan bibliografik kartochka ustiga sichqoncha bilan tanlanadi natijada bizga topilgan bibliografik kartochkaning to'liq tasviri keltiriladi (10-rasm). Agar topilgan bibliografik tasvirlar ko'p bo'lsa klaviaturadagi (pastga), (yuqoriga) tugmalari yordamida oldingi va keyingi bibliografik tasvirlarni to'liq ko'rish mumkin. Elektron bazada mavjud barcha bibliografik tasvirlarni ko'rish uchun **Bazani to'liq ko'rish** tugmasi bosiladi (11,12-rasmlar).



(9-rasm)

QIDIRISH

1|82 Г 798 Грейди, Джеймс Шесть дней Кондора [Текст]: роман. Пер. с англ. Бони И. /Д. Грейди : ред.

82
Г 798
Грейди, Джеймс
Шесть дней Кондора [Текст]: роман. Пер. с англ. Бони И. /Д. Грейди ; ред. В. Иванов, - М. :ЭКСМО, 2007; СПб. : Домино, 2007. - 272 с. - (Mystery Line). -1 экз. - ISBN 978-5-699-23226-0-:8800 сум .


УДК 82 (1-87)

(10-rasm)

QIDIRISH


1|894.375 А 15 Абдуллахонов, Ж. Тергов [Text] : роман / Ж. Абдуллахонов. - Т. : Шарк, 2000. - 33
2|894.375 К 53 Кодирий, Абдулла Уткан кунлар [Text] : роман / Абдулла Кодирий. - Т. : Шарк, 2000.
3|894.375 Ш 97 Шухрат Машраб [Text] : роман; Адиб хаётига бир назар; Хотиралар / Шухрат. - Т. : Ш
4|894.375 А 22 Авлоний, Абдулла Усон, Миллат! [Text] : художественная лит-ра / Нашрга тайёрловчи
5|894.395 Н 57 Низонов, Муродбой Узга сайёрада етти кун [Text] : хикоя ва кассалар / Муродбой Низ
6|801.3 Э 45 Электроника буйича асосий тушунча ва атамаларнинг узбекча-русча-инглизча изоҳли лугати
7|33 О 75 Ортиков, А. Иктисодий-хукукий атамаларнинг изоҳли лугати [Text] / А. Ортиков. - Тошкен
8|801.3 Д 99 Инглизча-узбекча-русча иктисодиет атамалари лугати [Text] = English-uzbek-russian dict
9|p.
10|894.375 И 83 Исфандиёр Угри: Мозг в законе [Text] : саргузашт кисса / Исфандиёр. - Т. : Ёзувчи,
19304 ta bibliografik ma'lumot topildi!

(11-rasm)



(12-rasm)


Elektron bazadan 13-rasmda keltirilgan bibliografik ma'lumotlar yordamida qidirish mumkin.



(13-rasm)

Dasturiy kompleksni kompyuterda ishlashini taminlash uchun avvalgi boblarda keltirilganidek Internet Explorer brovzerida ochish kerak bo'ladi.

Microsoft Access ma'lumotlar bazasi C diskning biblio katalogida saqlangan bo'lishi kerak bo'ladi. Brovzert tomonidan ActiveX texnologiyasidan foydalanish uchun ruxsat so'ralganda <Да> tugmasi bosiladi (14-rasm).



(14-rasm)

Yangi kartochkani aniqlash interfeysiga o'tish uchun [yangi kartochkani aniqlash](#) yozuvining ustiga sichqoncha ko'rsatkichi bilan tanlanadi.

Ma'lumotlar bazasi quyidagicha shakllangan bo'lishi kerak.

Имя поля	Тип данных	
id	Счетчик	
bmbshr	Текстовый	
mf	Текстовый	
ini	Текстовый	
ab	Текстовый	
x_tip	Текстовый	
sarlavha	Текстовый	
ps	Текстовый	
stm	Текстовый	
jt_bir_m	Текстовый	
jt_bosh_m	Текстовый	
ntm	Текстовый	
ntpm	Текстовый	
ntjtbm	Текстовый	
ntjtkm	Текстовый	
ntqm	Текстовый	
ntqmtjh_birinch_i_m	Текстовый	
ntqmtjh_boshqa_m	Текстовый	
nbcj	Текстовый	
nkcj	Текстовый	
ntvhn	Текстовый	
nvt	Текстовый	
nv	Текстовый	
tj	Текстовый	
tn	Текстовый	
tv	Текстовый	
tv	Текстовый	
moxivh	Текстовый	
jtnbtm	Текстовый	
ulcham	Текстовый	
imtm	Текстовый	
sasysocns	Текстовый	
sysocnps	Текстовый	
sysocnstm	Текстовый	
sysocnjtrbm	Текстовый	
sysochnjtkm	Текстовый	
usysochnbsxxsr	Текстовый	
sysochnchr	Текстовый	
eslatma	Текстовый	
isbn	Текстовый	
fqn	Текстовый	
qm	Текстовый	
rnti	Текстовый	
udk	Текстовый	
bbk	Текстовый	
qmch_mt	Поле МЕМО	
kartoteka	Поле МЕМО	

(15-rasm)

Va tablebiblio nomi bilan jadval yaratiladi. Mazkur yaratilgan baza bizning dasturiy kompleksimizning ma'lumotlarini saqlash vazifasini o'taydi.

4-BOB. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI

4.1. Shovqin va silkinishdan himoya

Sanitariya meyorlari turar joy va jamoatchilik binolarining to'siq moslamalarigacha manbalarining minimal masofalari va tovush quvvatining meyoriy darajasini belgilaydi. Shovqinli sexlarni, shovqini kam sexlar, turar-joylar va jamoatchilik binolarga nisbatan shamol tomonda va ulardan olisroqda joylashtirish maqsadga muvofiq.

Shovqin va silkinish bilan kurash korxonalar, ishchi o'rinlari va uskunalarini loyihalashtirishdanoq boshlanadi. Buning uchun:

1. Tashkiliy;
2. Texnik;
3. Tibbiy-profilaktik tadbirlardan foydalaniladi.

Ishlab chiqarish uchastkalari, uskunalar va ishchi o'rinlarini tashkiliy rasional joylashtirish, ishchilarning mehnat va hordig'ini doimo nazorat qilish, ishchi joylari va uskunalaridan foydalanish cheklovlari va tegishli sanitariya-gigiena talablariga moslashtirish ahamiyatlidir.

